

G'azallar

Zihi bordur zuhuringg'a azal birla abad paydo,
 Tafakkur aylabon zoting, qila olmas xirad paydo.
 Ne hikmatdurki, guldek yuz ato bir kimsaga aylab,
 Birovda bulbuloso ohu afg'on beedad paydo.
 Qachon hamdingga go'yo aylagum tilni mane bekas,
 Manga gar bo'lmasa altofi fazlingdin madad paydo.
 Bu ham bor qudratu sun'ing tasdiqiga bir burhon
 Ki, qilding bu to'qquz qat osmonni beamad paydo.
 Nechuk maqbullig' topg'usidur ahli jahon aro,
 Ul odamkim, onga qahring soridin bo'lsa rad paydo.
 Borisi xohishi taqdiring ila bo'lg'usi mavjud,
 Nekim gar bandadin olamda bo'lsa neku bad paydo.
 Topar kavnayi ichra maqsad ila komini Feruz,
 Inoyoting bila bo'lsa anga gar masnad paydo.

* * *

Bo'lsun salom behad anga subh ila maso
 Kim, dedi vasfini oni furqon aro xudo.
 Xoki qudumin ayladi bo'sa hama rasul,
 Bildi o'ziga shoh oni jumlai anbiyo.
 Ul shomkim, haq amri bila ayladi uruj,
 Topti hama murod ila maqsudini ravo.
 Albatta hashrda topar oning shafoatin,
 Har kimsakim, jahonda qilur inqiyod ango.
 Har kimki, amri shar'iyg'a gar sunmag'ay bo'yun
 Ro'zi jazoda bo'lgusi ikki yuzi qaro.
 Har kim salomu salovot etsa odatin,
 Shahd shafoatin ichadur tongla hashr aro.
 Feruzdek shafoating umidin etgamen,
 Hosil qil oni lutfing ila bobini masho.

* * *

Yorab, ish subhu maso jurm ila isyondur manga,
 Iki ko'zum ushbu g'ussa birla giryondur manga.
 Boshlag'il tavfiq ila rohi hidoyat sorig'a
 Kim, ko'ngul har dam zalolat birla javlondur manga.
 Man ayon qilmoq sanga lozim emasdur har nafas,
 Kim sanga bordur namoyon neki pinhondur manga.
 Sen agar lutfu inoyatu karam anlasang,
 Jumlayi mushkul iki olamda osondur manga.
 Afu hajridin bir qatra ehson aylagil,
 Kim hamisha jurm ila isyon farovondur manga.
 Ma'rifatning jonibig'a boshla yo'llkim borho,
 Jahl sori xotiri afkor jo'yondur manga.
 Qil ato bir jur'ai fazling bilakim, Feruzing,
 Subh ila shom orzu daryoi g'ufrondur manga.

* * *

Nigoro, oldi hushim, tarzi raftoringg'a sallamno!
 Yerutti tiyra kulbam, mehri ruxsoringg'a sallamno!
 Ishim qotil ko'zung bedodidin bo'lmish, base, mushkul,
 Ichib qonimni to'ymas, chashmi xunxoringg'a sallamno!
 Labing so'zdin berur jon o'lgan elga dardi ishqingdin,
 Ravoniarvar darijonbaxshi guftoringg'a sallamno!
 Hama ishq ahlidur, ey mug'bacha, zulfning giriftori,
 Bori din ahlini band etdi - zunnoringga sallamno!
 Deding: "Lutf aylagum!", o'lturding, ammo necha noz aylab,
 Agar lutfing bu ersa, javru ozoringga sallamno!
 Qilursan noz, agar man har necha arzi niyoz etsam,
 Sitamkor mahvasho, bu nav' atvoringg'a sallamno!
 Senga, Feruz, o'lub baxt, etding ul op qaddi, zulfin vasf,
 Bu yanglig' tab'i iozik birla ash'oringg'a sallamno!

* * *

Ul oy vasfini vird etsam zabonda,
 Necha yillar ado bo'lmas bayonda.
 Debon ma'shuqing asru bevakodur,
 Manga ko'p ta'nalar aylar jahonda.
 Netaykim, ishq zo'r anlab ko'ngulga,
 Ul oyning mehrini asratdi jonda.
 Habibimg'a chu mahram bo'ldi ag'yor,

Erurman ushbu hasratdin fig'onda.
 Firoq ichra mening bag'rim qilib qon,
 Nngorim, bilmadim, ermish qayonda.
 Humoyun baxt ila bo'lsun salomat,
 Agar bo'lsa habibim har makonda.
 Agar Feruzlik iqboling esa,
 Visolig'a yetushkung bir zamonda.
 * * *

Gul yuzungga bulbuloso o'tlug' afg'onim fido,
 Sarvi ozodingg'a qumridek xush alhonim fido.
 Xirmani guldek bo'lub kirgil quchog'im ichrakim,
 Gul kibi islab yuzung, aylay sanga jonim fido.
 Vah, nechuk kofirdurur ikki ko'zingkim, bir qiyos
 Holima boqmas ham etsam naqdi imonim fido.
 Goh-gohi man sori qo'ygil qadamkim, aylayin
 Maqdaming gardig'a jon, ey ko'nglum olg'onim, fido.
 Ey parivash kulbamg'a eldin nihonu oshkor
 Kelki, to aylay sanga paydoyu pihonim fido.
 Chashmi umidim yor o'lg'il mehrdek yuz birlakim,
 Bahri kon etsun sanga chashmi durafshonim fido.
 Baxti Feruz ila gar topsam visoling davlatin,
 So'z durrin bazmingda aylay, ey suxandonim, fido.
 * * *

Ruxsorin ochib bir pari keldi bu tun bazmim aro.
 Boshdin oyoqi bor ekan mehru vafo, nozu ado.
 Chiqsa falakka har sahar ohu fig'onim, ne ajab,
 Aylar fuzunroq har kecha ul oy menga javru jafo.
 Bilmon, ne ofat erdi ul bo'lg'och nazarga jilvagar,
 Aqlu xirad, islomu din o'ldi bori mendin judo.
 Joning uchun har dam manga ko'rguz tarahhum, ey pari
 Kim, sabru toqat qolmadi javring chekib subhu maso.
 Oydek yuzungning partavi tushsun karo kulbamg'a ham,
 Ko'yg'il qadam, ey mahliqo, ochib uzori dilkusho.
 Ne sud, tole' bo'lsa gar yuz oyu kun, har subhu shom,
 Nechunki bor Feruzg'a mehru jamoling muddao.
 * * *

Ey, yuzungdur husn avjida munavvar oftob,
 Ko'rgach oni zarradek etsam tong ermas iztirob.
 Bulbuloso aylabon tun-kun fig'onu nolalar,
 Zor ko'nglum gul yuzung shavqida bo'l mishdur xarob.
 La'li mayguning firoqida yetibman o'lgali,
 Vasl aro la'l'ing sharobi birla qilg'il komyoob.
 Do'stlar, faryodu afg'on etsam ermas aybkim,
 Dilbarim ag'yorg'a lutfu manga aylar azob.
 Mahram et vasling aro iqibili Feruzing kibi,
 Bu hazinni, ey sumanbar, aylamay nozu itob.
 * * *

Dedim: "Ko'zumni ravshan et mehri jamoling ko'rsatib!"
 Dedi: "Uzorim o'tig'a joning netarsan o'rtafib?!"
 Dedim: "Tarahhum aylabon holimg'a qil nazzora".
 Dedi: "Ko'zum joning figor etgusi noz o'qin otib".
 Dedim: "Visol ichra labing shaxdi mening komim erur".
 Dedi: "Sanga bergum ani zahri firoq ichra qotib".
 "Dedim: "Labingning sharbati shirinmu yo kavsar suyi?"
 Dedi: "Bo'lurmu har suyi obi baqog'a o'xshatib?!"
 Dedim: "Nedin erkan bugun olam muattar bo'l mog'i?"
 Dedi: "Sochimni tong yeli yuz uzra solmish butratib".
 Dedim: "Ko'zung bedor qil noz uyqusidin, ey pari".
 Dedi: "Bu lahza fitnayi noyimni netkung uyg'otib?!"
 Dedim: "Ko'zungdin o'rgilay, bir bo'sa ber Feruzg'a".
 Dedi: "Yuzumni og'ritur har yon xating nishi botib".
 * * *

Yetushti hajridin jonimg'a yuz ranju alam, yorab,
 Ko'rub holimni, kam qilmas manga bir dam sitam, yorab.
 Visoli orzusida o'turdim subh ila shomim,
 Muyassar bo'l madi hijronida juz dardu g'am, yorab.
 Na qoldi tob jismimda, na toqat zor ko'nglumda.
 Yetur emdi visolig'a o'zung aylab karam, yorab.

Sochi savdosida doim qorong'udur manga olam,
 Mening bu shomi hijronimga yetkur subhidam, yorab.
 Jahonorjamolidin mening bazmimg'a ham bir tun
 Yeturgaymu ekan ravshanlig' ul mahvash sanam, yorab.
 Agar lutf aylabon o'z ilki birla bersa bir sog'ar.
 Ko'ngulda qolmas erdi orzuyi jomi Jam, yorab.
 Ne yanglig' sabr qilsun ul quyosh hijronida Feruz,
 Ziyod aylar jafosin, aylamas bir zarra kam, yorab.
 * * *

Bu oqshom keldi ul dilbar adab birla salom aylab,
 O'luk jismimga jon berdi masihoso kalom aylab.
 Shabistonimni qildi orazining mehridin ravshan,
 Ochib ruxsoridin parda, quyosh yanglig' xirom aylab.
 Ayon aylab jamolin qildi shomim subhga tabdil,
 Yuzi hijronida ag'yorning subhini shom aylab.
 Kelib yuz nav' nozu ishva birla mehr etib og'oz,
 Qoshimda o'lтурub dedi tilin mo"jiz kalom aylab.
 Kp: "Ey hajrimda ko'ngli loladek dog' uzra dog' o'lg'on,
 Yurursan bo'yla toki ayshi rohatni harom aylab?
 Visolimg'a chu yetding shodu masrur aylabon o'zni,
 Bayon ayla manga sen arzi holingni tamom aylab".
 Chiqorib bir surohiy boda paydar-pay qilib labrez,
 Ichurdi qo'l solib bo'ynumg'a yuz ming ehtirom aylab.
 Kirib og'ushima majlis aro sarmasti xob o'ldi,
 Tong otg'uncha mani masti mudom shodkom aylab.
 Yori ushshoqini Feruz sarmastp bahor etti,
 Olloh, shod et oni barchadin oliymaqom aylab.
 * * *

Olsa jonom qoshu ko'zung, ikki lab,
 Tozadin jon bergusidur ikkilab.
 Yetsa soqiy bazmi aro navbat manga,
 Maydin aylab jomni tut labo-lab.
 La'li mayguning firoqidur mening,
 Solg'on o't jonomg'a gar so'rsang sabab.
 Tashlabon hijron qorong'u chohig'a,
 Qon oqizding ko'zlarimdin ro'zu shab.
 Kecha-kunduz g'ayr ila suhbat tuzub,
 No'sh etarsan dam-badam jomi tarab.
 Zori sargardon bo'lub subhu maso,
 Jonu dil qilg'usidur vasling talab.
 O'zgalarga ko'rguzub lutfu karam,
 Ne uchun Feruzg'a qilg'ung g'azab.
 * * *

Zulfi mushkinini ul oy ayladi yuzga niqob,
 Oshiqu bechoralarning ko'znni qildi purob.
 Otashin ruxsori ustida muanbar kokili,
 O'tg'a tushgan qil masallik qilg'usidur pechu tob.
 Lutf etib kelding bukun bazmim aro, ey mug'bacha,
 Kelturub jomi payopay qil mani sarmasti xob.
 Ey sumanbar, har qachon ishq ahlig'a solsang nazar,
 Man haziningni dog'i ul jumladin qilg'il hisob.
 No'sh etib ag'yor ila gulrang may ul sarvnoz,
 Ayladi man zorni rashk o'tig'a bag'rinn kabob.
 Gar takallum chog'i dur sochsa labi yoqutidin,
 Aylay olg'aymu anga o'zin barobar durri nob.
 Solibon Feruzni ko'zdin yiroq, ey nozanin,
 G'ayr ila suhbat tuzub ichkungdur gulgun sharob.
 * * *

Yorimning ruxsori oldida hijildur oftob,
 Vahki, oshiq ishqij o'ti qildi bag'rimni kabob.
 Ul parivashg'a dedim: "La'ling mayidin boda tut".
 Noz ila derkim: "Sanga yetkaymu la'limdin sharob.
 Yolvorib har necha lutf ummid qilsam yordin,
 Ul manga so'kub-kulub yuz noz ila aylar itob.
 To erur joning badanda, ista jonon vaslini,
 Yetsa ham, ey dil, sanga yo'lida yuz ranju azob.
 Man dedim yorimg'a: "La'lingdin ato qil bo'saye!"
 Dedi: "Ey Feruz, sabr et, muncha ko'rguzma shitob!"

La'lig'a yetkurbmu ul guluzor sharbat,
 Ta'm ichra buki yupmish ko'p ishtihor sharbat...
 Ichgandek obihayvon ruhi ravoi toparman,
 Gar bersa labga eltit bir kosa yor sharbat.
 Go'yo labi suvidin bir qatra tomizibdur,
 Qand uzra muncha bo'l mish ko'p shiravor sharbat.
 Ul sho'x labshakarning la'lig'a yetkonidin
 Topmish bu nav' qadru ham e'tpbor sharbat.
 To qildi bo'sa ul sho'x la'li ravon fizoyin,
 Ushbu xususdin oldi mandin qaror sharbat.
 Jonimni rashk o'tig'a, jopo, desapgki yoqmay,
 Ag'yor birla ichma ko'b oshkor sharbat.
 Doim vujudi bo'lg'ay emin xazon yelidin,
 Har kimki, yori birla ichsa bahor sharbat.
 Na xush saodat o'lg'ay Feruzliq qilib baxt,
 Har kecha o'z qo'lidan bersa nigor sharbat.

Furqating soldi dilu jon ichra o't,
 Kufri zulfing dinu iymon ichra o't.
 Nargisi shahlo ko'zung solg'usidur
 Bir nigahdin bog'u rpzvon ichra o't.
 Oh cheksam furqatingdin o'rtannb,
 Tushgusidur baytulahzon ichra o't.
 Jurmim, ey mahvash, nedur, har dam solur
 Barqi ishqing jismp vayron ichra o't.
 Oy kibi farrux yuzungshshg furqati
 Soldi ko'kda mehri raxshon nchra o't.
 Ne ajab, ko'rgach yuzung Feruzning
 Ohidin tushsa guliston ichra o't.

O'lmakka yetdpm hijron g'amidin, holimg'a et rahm, ey sarviqomat,
 Qadding niholi bodi xazondin bo'lsun, iloho, doim salomat.
 Ishqingg'a tushdum, qoldim balog'a, kelmasmu rahming bu mubtalog'a,
 Zo'r aylab ishqing men benavog'a, soldi boshimg'a sho'ri qiyomat.
 Kofur ko'zungga jonus jahonim bo'lsun tasadduq, ey mehribonim,
 La'ling mayidin mast ayla jonom, g'amin topay to birdam farog'at.
 Yuz uzra la'ling chun qildi pinhon xatti zumurrad, ey mohitobon,
 Desam tong ermas, zulmatda qolg'on hayvon suyidin uldur alamat.
 Vasling sharobin no'sh aylab ag'yor, tun-kun erurlar sarshor-sarshor,
 Vahkim, bo'lubman mahrumi diydor, zahri g'amingga qildim qanoat.
 Rashk o'ti aylab bag'rimni bir yon, ashkimni qildi daryoi ummon,
 Anduhi furqat oshubi bir yon, bir yon hujumu ta'nus malomat.
 Charxi sitamgar aylab manga kin, qildi sanga qahr etmakni oyin,
 Billohki, g'amin bu joni shirin topmas tanimdin chiqmoqg'a fursat.
 Ahbob vasling xonida mahzuz, hijron g'ampidin ma'munu mahfuz
 Bordur manga ham maqsudi malhuz, jomi visoling yo'q shahdi sharbat.
 Bo'lsun hamisha gardun g'uloming, pqooli tole' romi maroming,
 Feruz o'lub har subh ila shomining, hamrohing o'lub baxtu salomat.

Nechuk ofat eding, ey sarviqomat,
 Boshimg'a soldi ishqing yuz qiyomat.
 Qiyomat sho'rishin jahong'a soldering,
 Jahondin mun'adam bo'ldi farog'at.
 Farog'at pstagan chiqsun jahondii,
 Tonilmasdur tiriklikda salomat.
 Salomat ahli boshig'a falakdin,
 Dame tinmay yog'ar sangi malomat.
 Malomat toshidin ozurdadurlar,
 Bu ko'hna dayrda ahln farosat.
 Farosat haylining ollida bu qul,
 Boshingg'a solmanin chipi malolat-
 Malolat chekmayin desang jahonda,
 Xudoning bergeniga qil qanoat.
 Qanoat birla sabr o'lsa sanga ish,
 Har ishda qilmagung hargiz nadomat.
 Nadomat birla umrim o'tdi, yorab,
 Yetur tongla rasulingdin shafoat.

Shafoat jomidin sarshor qilg'il,
Hazin Feruzni shohi risolat.

Qachonkim aylasa ul Isoyi zamona hadis,
O'luk badanga berur umri jovidona hadis.
Bo'lur bori shakkarin nuktago'ylar abkamu lol,
Ne majlis ichra qilur ul mahi yagona hadis.
Hadisidin, neajab, zumri jovidon topsam
Ki, har dam obn Xizrdin berur nishona hadis.
Desa so'z o'zga habibimdin, aylamas ta'sir
Qulqoq'a har nechakim bo'lsa qudsiyona hadis.
BihAMDILLAH, erurman visolig'a mahram,
Nedinki, bordur eshitmak manga bahona hadis.
Mug'anniyo, tuzub "Ushshoqi rost" ohangin,
Navo qil, aylabon og'oz oshiqona hadis.
Gohi karam bila Feruzni ham aylab yod,
Zamon-zamon anga qil xat bila ravona hadis.

Qading hajrida, ey huri parizod,
Qilurman qumri yanglig' nola bunyod.
Dame bu holima aylab tarahhum,
Visoling bazmida qilg'il mani shod.
Munavvar orazing chun mohi anvar,
Erur zebo qading chun sarvi shamshod.
Jafo tarkin tutub man notavong'a,
Hazin ko'nglumni g'amdin ayla ozod.
Erur har kirpiking bir tuki xanjar,
Ko'zung jon olg'uchi berahm jallod.
Ne bo'lg'ay bir kecha eldin nihone
Xirom etsang qilib Feruzni yod.

Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur?
Nargis erkanmu va yo ul chashmi purafsunmudur?
Ul gul olmishmu qizil gul ilkiga bu bog' aro,
Yo shahidi ishq qonidin qo'li gulgumudur?
Gul nechuk gulgun yuzungga o'zni monand aylagay
Kim, oning rangi yuzungdin dam-badam afzunmudur?
Gul uza shabnadshu yoxud bulbul ashki hajridin
Gul boshi uzra nisor o'lg'on duri maknunmudur?
Buki, tinmay gulshan ichra nola aylar andalib,
Ul dag'i bir gul g'amidin man kibi dilxunmudur?
Do'stlar, Laylini gulro'yimga tashbeh aylading
Kim, oning devonasi men zordek Majnunmudur?
Ey ko'ngul, ul gul visoli ichra shod etkan sani,
Baxti Feruzingmu yoxud gardishi gardunmudur?

Kulub dedi manga bu kecha dildor:
"Bo'lubmusan manga asru giriftor?"
Dedimkim, "Oshiqi zoringman, ore,
Netaykim, vaslinga yo'l berding ag'yor.
Sanga ag'yor hamdam bo'lsa bor dam,
Mening bag'rim bo'lur afgoru afgor.
Bu holimni ko'rub, qilgil tarahhum
Bo'lubman dardi ishqingdin base zor..."
Tabassum birla dur sochib so'zidin,
Dedimki: "Ne g'araz bu so'zdin, ey yor?"
Dedim: "La'lingdin etgil bo'sa ehson",
Dedi: "Bu nukta bordur asru dushvor".
Ko'rub ul damda behad iztirobim,
Dedi: "Feruz, bo'lgum sanga g'amxor".

Shod o'lg'il, ey mahzun ko'ngul, ou kecha dildoring kelur,
Shirin takallum, gulbadan, la'li shakarboring kelur.
Soz ayla aysh asbobini, ochg'il tarab abvobini,
Ruxsori olamtobini ochib sevar yoring kelur.
La'lin qilib mo"jizbayon, bermakka umri jovidon,
Yuz nav' mehr aylab ayon, jonbaxsh guftoring kelur.
Hijroni ichra borho tortar eding ranju ano,

Bu dam tutub rasmi vafo sho'xi sitamkoring kelur.
 Mahzun qilib aq'yorni, shod etgali sen zorni,
 Tark aylabon ozorni, yori vafodoring kelur.
 Ko'ngliga nolang bir sahar ta'sir qilmishdur magar,
 Shirin dudoqu siymbar, faxyunda diydoring kelur.
 Feruzbaxt o'lgil mudom, et no'shi ishrat birla jom,
 Andoqki sarvi xushxirom, ozoda raftoring kelur.

Ohkim, jonimg'a javr aylab mani yor o'lthurur,
 Hajr tig'idin qilib ko'ksimni afgor o'lthurur.
 Bersa jon shirin labidin gar o'luk jismimga, lek
 Qatlama aylab ishorat, chashmi xunxon o'lthurur.
 Kelsa toki majlisimga necha turluk noz ila,
 Gah qilib xushdil, bo'lub gohi dilozor o'lthurur.
 Gar nazar qilsam ul oy ruxsorig'a moyil bo'lub,
 Rashk o'tig'a o'rtabon zulfi nigunsor o'lthurur.
 Vasli birla shod etib ag'yorni, hijron aro
 Aylabon mahzun mani, charxi sitamkor o'lthurur.
 Ishq aytur: "Masti xob o'lg'onda o'pgil la'lidan",
 Aql der: "Qo'y bu ishing, gar bo'lsa bedor, o'lthurur".
 Har necha yo'lida jon qilsam fido Feruzdek,
 Aylamay manzur oni, har damda yuz bor o'lthurur.

Lutf ila aylab tabassum, keldi chun bazm ichra yor,
 Na anga bir kimsa hamdam erdi na ag'yor yor.
 Noz ila boshlab takallum dedi ul dilbar manga:
 Qaysi mahvash ko'rguzub yuz oldi sandin ixtiyor?
 Qaysi bir jallod ko'z holing xarob et mishen,
 Kaysi dilbar zulfiga bo'lding asir, ey dilfigor?
 Qaysi bir yoqutlab durdek tishi mushtoqisan
 Kim, kecha-kunduz ko'zung yoshi erur gavharnisor?"
 Man dedim oning bu yanglig' iltifotini ko'ruba:
 "San erursan bag'rim etgan qon, chashmim - ashkbor".
 Yuz tuman nayrangi birla ikki jodu nargising
 Aqlu hushimni olib qildi mani majnunshior.
 Dedi: "Ey Feruz, keldim kulbanga tanho bu tun,
 Xoh so'rg'il, xoh o'p engu labu engu uzor".

Yoqut labu gavhar tishu g'uncha dahan yoring kelur,
 Nasrin uzoru lolaruh xurshid ruxsoring kelur.
 Iso nafas, Yusufi Chin, Muso takallum mohrc',
 Jallod ko'zu berahm dil, sho'xn jafokoring' kelur.
 Mushkun qoshu sunbul sochu mohpaykaru jonbaxsh dam.
 Siyminzaqan, gulpirahan, la'li shakarborin kelur.
 Mehrorazu farrux yuz, to'biqadu shnrinsuxan,
 To'ti maqomu gulbadan, tovus raftoring kelur.
 Kofirvashu oshiqkushu nozik mizoju tundxo',
 Sangin ko'ngil, bedodgar, yori dilozoring kelur.
 Rangin adoyu tezfahm, abro'kamonu xashmgin,
 Qotil nigohu bevafo, chashmi xunxorin kelur.
 Iqbolu Feruzing bo'lub yovar sanga uz nozanin,
 Lutfu karam zohir qilib, bo'lmoq uchun yoring kelur.

Qildilar ko'zum ravshan orazi duraxshonlar,
 Komim etdilar shirin la'li shakkarakhonlar.
 Noz ila karam aylab majlis ichra keldilar
 Orazi gulafshonlar, kokili parishonlar.
 Husnig'a berur ziynat bir-biridin afzunroq,
 Yuzda xoli hindular, labda hatti rayhonlar.
 Jonfizo tabassumdin lablarin qilib xandon,
 Qildilar so'rub holim necha lutfu ehsonlar.
 La'li jonfizolardin bo'salar ato aylab,
 Berdilar firoq ichra xasta jong'a darmonlar.
 No'sh etib Mayi gulrang mastlig' qilib har
 Bir-biri bila o'ynab chok etib giribonlar.
 So'z durin nisor ayla maqdamig'a, ey Feruz,
 Bazming ichra kelmishlar bu aziz mehmonlar.

Ey sabo, bergil xabar, oromijonim qaydadur?
 Sarvqadu gulpirahan, g'uncha dahonim qaydadur?
 Bir qyo boqmoq bila aqlimni toroj aylagan
 Ul pariruxsor, mujgoni sinonim qaydadur?
 Chiqtı jonim furqatida gul yuzin ko'rmay aning,
 Jon berurg'a la'lidan Iso nishonim qaydadur?
 Kechayu kunduz firoqpda o'lar holatdaman,
 Ayting, ey ahboblar, jism ichra jonim qaydadur?
 Ohu nolam charxfarsodur yuzi hijronida,
 Bilmadimkim, boisi ohu fig'onim qaydadur?
 Belu og'zi yodi birla ko'zlarim giryon etib,
 Oshkoror anlagan dardi nihonim qaydadur?
 Vasli birla shod etib ag'yorlarni har kecha,
 Baytulahzonimg'a bo'lmay mehmonim qaydadur?
 Topmadim ul gul visolidin xabar Feruzdek,
 Ey sabo, bergil xabar, oromijonim qaydadur?
 * * *

Oftoboso jamoling ko'rgach o'dum, ey nigor,
 Beqaroru beqaroru beqaroru beqaror.
 Tig'i ishqou xanjari nozingdin o'dum subhu shom,
 Dilfigoru dilfigoru dilfigoru dilfigor.
 Ohu nolam ayladi ishqingni oxir dahr aro,
 Oshkoru oshkoru oshkor.
 Javru zulming bo'lg'ondur man hazing'a dam-badam,
 Beshumoru beshumoru beshumoru beshumor.
 Oy kibi farrux jamoling ko'rgali yo'lungda ko'z
 Intizoru intizoru intizoru intizoru.
 Noz ila so'rsang samanding sakratib yo'q sen kabi
 Shohsuvoru shohsuvoru shohsuvoru shohsuvoru.
 Vaslinga yo'l topsa har kim bo'lgay ul Feruzdek
 Baxtiyoru baxtiyoru baxtiyoru baxtiyor.
 * * *

Ayladi hayron mani bir sho'x chashmi xoldor,
 Ko'rgach oni bordi ilkimidii inonu ixtiyor.
 Chiqsa raxshin sakratib maydong'a gar, davron elin
 Qilg'usn daryoyi hayrat ichra g'arq ul shohsuvor.
 Vah, ne yanglig' ofat erdi soldi o't olam aro,
 Aynatib qoshu ko'zin ochibon gulgun uzor.
 Burkini egri qo'yub zulfin parishon aylasa
 Aytgusidur porsolar ko'nglidin sabru qaror.
 Gul ko'tarmish boshiga shabnam durin qilmoq uchun,
 Sayri bog' etsang agar oni qudumnnng'a nisor.
 Lola poyandoz uchun bargin to'shab yo'lung uzra,
 Nargis shahlo ko'zidur kecha-kunduz intizor.
 Xo'bliq lofin urar gulshanda gul, en jon, kelib
 Qilg'il ochpb gul yuzung ul xiyra sarni sharmisor.
 Gul yuzungni ko'rmaq aylab orzu subhu maso,
 Ko'zlarim yosh to'kkusidur misli abri navbahor.
 Oshiqi bechoralar holig'a qilmoqqa sitam,
 Yo'qturur olamda sandek bir pariruxsor yor.
 Bu jahon ra'nolarig'a bo'lma maftun, ey ko'ngul,
 Borchasidur besabotu bebaqoyu bemador.
 Ayb qilmang gar parishonhol esam Feruzdek,
 Aydadi ishqı ul oyning jonu ko'nglum beqaror.
 * * *

Orazining mehrig'a xurshidi raxshon bandadur,
 Qomati zebosig'a sarvi xiromon bandadur.
 Chashmi xob oludig'a nargis qilib qurban o'zin,
 Yuzining gulzorig'a firdavsi rizvon bandadur.
 Ruhparvar nuktasig'a bo'lg'usidur qul Masih,
 Jonfido la'lig'a oning obihayvon bandadur.
 Dargahidadur Zulayho bir kanizi kamtarin,
 Partavi ruxsorig'a ming mohi Kan'on bandadur.
 Layliyi lo'livashining zulfi anbarborig'a,
 Aylabon jonna fido Majnuni hayron bandadur.
 Ul labi shirin firoqida qolib shomu sabo,
 Vaslin aylab orzu Farhodi nolon bandadur.
 Baxt o'lub Feruz agarchi har dor osha ersa ham,

O'pmak istab la'l shiriningni, ey jon, bandadur.

* * *

Sochi sunbul, yuzi gul, sho'xi parizodim kelur.

Qilg'oli komim ravo ul sarvi ozodim kelur.

Ishqida bilmish durur holi xarobimni, magar

Rahm etib man sori bukun qaddi shamshodim kelur.

Jilva birla qomati sarvin xiromon aylabon,

G'arq etib ozoru javrin ko'zi jallodim kelur.

Vaslin istab borg'ochs Ҳ"o'q qo'y'i sori boqib manga

Dedi ul shirinliqo: "Ishqimda Farhodim kelur!".

Javru zulmin tark etib bukun mening kulbam aro,

Lutf aylab boisi afg'onu faryodim kelur.

Ko'rubon Majnuni zabun holim junun vodysisida,

Dedi taslim aylabon: "Ishq ichra ustodim kelur".

Ko'rgach-o'q Feruzni dedi tabassum ko'rguzub:

"Vaslim aylab orzu ul zori noshodim kelur".

* * *

Sakratib maydonda raxshin ul pari javlon qilur,

Chustu chobuklikda olam ahlini hayron qilur.

Sarvqaddu gul yuzin ko'rmaqlik aylab orzu,

Bulbuli qumri o'zin shavq o'tig'a so'zon qilur.

Ko'z yumub ochg'uncha yetsa ishq sultoni agar,

Aqlu hushu sabr qasrin yer bila yakson qilur.

Hajridin yetsa jafo ul dilrabodin har necha,

Ul jafoni vasl umidi dardima darmon qilur.

Ohkim, man notavonni furqat o'tig'a yoqib,

Vaslida ag'yorni sarshor etib shodon qilur.

Aylabon ko'ksum hadaf, qahru g'azab zohir qilib,

Qoshining yosi bila mujgon o'qin parron qilur.

Joni zorimg'a necha qilsa sitam parvonadek,

Boshi uzra aylab o'zni nisor, onga qurbon qilur.

Iltifotingdin nasime yetsa, jono, man sori

Bog'i umidim gulini g'unchasin xandon qilur.

Yog'durub anjum ushshoq toshini kajraftordin,

Olam ahli umrini bunyodini vayron qilur.

Ahli xissat yetsa davlatg'a, zamona ahlining

Bir fulusi karmana uchun bag'rini biryon qilur.

Sabr qil Feruz, agar qilsa jafo bu charxi dun,

Sabr qilg'onning xudo mushkullarin oson qilur.

* * *

Har so'zida fosh etar ul buti tannoz noz,

Bo'lush anga go'yiyo hamdamu hamroz noz.

Har necha ul sho'xg'a arzi niyoz aylasam,

Ayni tag'oful bila qilg'usi og'oz noz.

Nozlar aylab qilur ishq eli ko'nglin shikor.,

Bo'ldi, magarkim, anga shunqori shahboz noz.

Noz ila boqg'och qyio hushumu sabrim olib,

Dashti jununda mani qildi sabuktoz noz.

Gar anga tuzgil desam do'stliq ohangini,

Javri maqomin tutub qilg'usidur soz noz.

Turfa budurkim, o'luk jismima jon bergali

Bo'ldi Masiho kibi mo"jizapardoz noz.

Gar tilasang vaslida kom ila Feruzliq,

San anga ko'b qil niyoz, etsa gar ul oz noz.

* * *

Yor ko'nglimdag'i asroru nihonim bilmish,

Ishqida har neki pinhonu ayonim bilmish.

Lutf birla bu kecha keldi yonimg'a go'yo

Yong'onin furqat o'tig'a tanu jonim bilmish.

Chiq'onin gul yuzi hijronida aflok uzra

Bulbuloso tun-kun ohu fig'onim bilmish.

Hojat ermas anga arz aylamak ahvolimi

Kim, vafo yo'lida yaxshiyu yomonim bilmish.

Shukrkim,tole' Feruz ila bormish xushhol,

Ishqida tuzlukim ul qoshi kamonim bilmish.

* * *

Ayb aylamang bo'lsam ul oy ishqida nolon, ey rafiq.,

Qildi hazin jonimni hajr o'tig'a so'zon, ey rafiq.

Dardu g'am hijronida holim ko'rub rahm aylamas,
 Zulmin fuzun aylar manga ul nomusulmon, ey rafiq.
 Topgusidur o'lgan badan nutqidin oning toza jon,
 La'li labini har qachon qilsa durafshon, ey rafiq.
 Yuz noz ila ul dirlrabo qilsa takallum nogahon,
 Ul bo'lgusi, ko'rsa agar, ming mohi Kan'on, ey rafiq.
 Otib qoshining yosidin kirpik o'qini dambadam,
 Bu o'q bila qildi ko'ngul mulkini vayron, ey rafiq.
 Rohat topar jonio mening qilsa sitam har necha ul,
 Javri magar bo'l mishdurur dardima darmon, ey rafiq.
 Man' aylama Feruzni ul mahliqoning ishqidin,
 Bo'l mish oning ishqini mening jismim aro jon, ey rafiq.
 * * *

Sayri gulshan aylaganda ul sumanbar, ey rafiq,
 Ishq o'tini soldi ko'nglum ichra axgar, ey rafiq.
 O'ynotib qoshu ko'zini aqlu hushimni olib,
 Ayladi Majnun mani ul sho'xp kofar, ey rafiq.
 La'li ruhafzosini o'pmak tamanno aylabon,
 Bo'ldi ko'nglum ma'dani yoqutu ahmar, ey rafiq.
 Aylagach la'li tabassum ko'rub inju tishlarin,
 Domanimg'a to'kdi ko'z marjonu gavhar, ey rafiq.
 Yog'du olamni ko'zumga qildi shomi tordek,
 Aylabon pinhon yuzin zulfi muanbar, ey rafiq.
 Ul parimu ravshan etgan tiyra bo'lg'on ko'zlarim,
 Ko'kdin indimu va yo xurshidi anvor, ey rafiq.
 Zohir aylab javru zulmu qahru kin Feruzg'a,
 Ayladi holin xarob ul mohi paykar, ey rafiq.
 * * *

Olding niqob yuzdin, ey dirlrabo, muborak!
 Xurshiddek jahong'a berding ziyo, muborak!
 Farxunda orazingii aylarga sham'i majlis,
 Kelding tarahhum aylab bu bazm aro, muborak!
 Oshiqlaringg'a vasling ko'b va'da aylab erding,
 Bu va'dalarg'a oxir qilding vafo, muborak!
 Gohi tabassum aylab, gohi takallum aylab,
 Pnihonu fosh qilding nozu ado, muborak!
 Gohi olib qo'lungg'a tanbur, o'lub navosoz,
 Ushshoqi benavoga berding navo, muborak!
 Chiqmay usuldinki raqqosliq qilib fosh,
 Yuz bo'sa bir diramg'a qilding baho, muborak!
 Feruz, ko'ngling etma qoshu ko'ziga maftun,
 Erkan hayosiz asru ul sho'xi nomuborak!
 * * *

Ey falak, netdim sani, dunshanlig' izhor aylading,
 Notavon ko'nglum tiganmas g'amg'a duchor aylading.
 Solibon ayru malaksiymo habibimdin mani,
 G'ulsurat devsiratlar bila yor aylading.
 Vasl ila bir dam xush etmay xotiri noshodimi,
 Doimo dardu firoqu g'am aro zor aylading.
 Hajr tig'idin qilib jismimnn sartosar yaro,
 Joni zorimii mashaqqat birla afgor aylading.
 Davlatp vaslin tuyassar aylabon ag'yorga,
 Mehnatu hajrig'a ko'nglumni sazovor aylading.
 Bir yo'li aylanmayin Feruzning komi bila,
 Ey falak, netdim sani, dushmanlig' izhor aylading.
 * * *

Husn avjining xurshididur, ey mohsiymo, orazing,
 Balkim, latofat ichradur ondin ham a'lo orazing.
 Kun zohir aylab infiol o'ldi shafaq ichra nihon,
 Subhi saodatdin tulu' etgach musaffo orazing.
 Sarv uzra ochilmish guli ahmar debon hasrat qilur,
 Ko'rgan kishi qadding uza bu nav' zebo orazing.
 Husnu latofat ramzini ishq eliga bildurgali,
 Gulgun sahifa ustida xat qildi paydo orazing.
 Ko'nglum qushi bulbul kibi tinmay navo cheksa, netong
 Kim, oni bu nav' aylamish xushlahi go'yo orazing.
 Ishqingdin o'lganlara ber, jono, hayoti tozakim,
 La'lingdin etmish chashmayi hayvon huvaydo orazing.

Shahlo ko'zu mushkin qoshu xoli muanbarlar bila,
 Ziynatlig' etmishdur, base, tangri taolo orazing.
 Sabru qaroru toqatim bordi ko'nguldin, ey pari,
 Vasling aro bir dam ko'zum qilgoch tamosho orazing.
 Iqboli Feruzing kibi bo'lmoq tilarman munising,
 Yoshurma haq haqqi uchun, ey sho'xi yakto, orazing.

Ko'nglumga soldi, vah, ishq o'tinkim bir g'amza birla tarzi nigohing,
 Qildi ko'zumga olamni tiyra yuz uzra tushgan zulfi siyohing.
 Qilg'och tamosho mehri jamoling ishqing g'amig'a bo'lдум giriftor,
 Yolg'uz ekanmu bu dilrabolig', bordurmu yoxud mehri giyohing.
 Oyu quyoshg'a qilmas nazora gar ko'rsa ushshoq hayratlar aylab,
 Jono, qamardek ruxsoring ila xurshid, gavhar zarrin kulohing..
 Hajr ichra g'admin o'lmaffa yetdim rahm aylab emdi, bo'lg'il panohim,
 To barcha koming aylab tuyassar bo'lsun hamisha tangri panohing!
 Feruz, yoring ortuqroq aylar joningg'a har dam javru javosin,
 Gar tavba qilsang ollida yig'lab o'tmasmu erkan jurmu gunohing!

Yoqtdurmu bilmadim yo la'l, ey jonon, labing,
 Yo orazing gulzorida bormu guli xandon labing.
 La'lingni bir o'pmak bila toptim hayoti jovidon,
 I'jozi Isomu ekan yo sharbati hayvon labing.
 Kulgu chog'i zohir bo'lur bu musaffo tishlaring,
 Go'yo alardur bebahol dur, huqqayi marjon labing.
 Ko'zdin to'kub hijron aro doim sirishqi lolagun,
 O'pmaklik anlab orzu tun-kun yutarman qon labing.
 Ming bebahol yoqut la'l in'omidin ortuq durur,
 Bir so'rg'oli bu zoringa qilsang agar ehson labing.
 Gar bo'sayi la'lingg'a jon naqdin qilur ersang baho,
 Olg'um, nedinkim, bir o'lgub o'lganga ne armon labing.
 O'tlug' zamirimg'a mening dog' uzra qo'y'on dog'lар,
 Jon nuqtasidek xollar zohir qilib haryon labing.
 Feruz jannat ravzasin gar istamas, ermas ajab
 Kim, orazing jannat guln, kavsar suyi, ey jon, labing..

Soldi olam ichra g'avg'o, ey malaksiymo, ko'zung,
 Dinu iymonimnn toroj ayladi tarso ko'zung.
 Man nechuk jon asrag'ayman ko'zu qoshing oldida,
 Yo qoshing olgusidur jonomni bir kun yo ko'zung.
 Jon fido qilsam agar, lutf aylab, etmas bir nigoh,
 Vah nechuk berahm erur, ey orazi xumro, ko'zung.
 Jon berurda lablaring qilsa tabassum nogahon,
 Qatlama mujgonnng o'q aylar, qoshingni yo ko'zung.
 Javrini ortuqroq aylar dam-badam ushshoqqa,
 Turfa zolim xalq qilmish xoliqi ashyo ko'zung.
 Bo'yninga solib qo'lumni, qoshinga qurban o'lub,
 Gul yuzung, maygun labing o'psam, gohi shahlo ko'zung.
 Har necha izhori ajz etsam agar Feruzdek,
 Ortuq aylar zulmini, kam aylamas aslo ko'zung.

Keldi ochib gul yuzin bazmimga jonomim mening,
 Ko'zu qoshig'a fido bo'lsun dilu jonom mening.
 Gul yuzun yuz pora aylar lola, g'arqi xun o'lur,
 Kelsa gar gul sayrig'a sarvi xiromonim mening.
 Ko'zi jallodi agar jonomni olsa g'am emas,
 Tozadin jon bergusi ul la'li xandonim mening.
 Ravshan etdi furqatida tiyra bo'lg'on ko'zlarim,
 Mehri ruxsorin ochib xurshidi tobonim mening.
 Ochsa so'z ayturg'a lab majlisda mahvashlar agar,
 Borchasin mulzam qilur sho'xi suxandonim mening.
 Anbarafshon zulfin etmish orazi uzra niqob,
 Qon to'kar ko'rmak tilab bu chashmi giryonim mening.
 Keldi bazmim ichra, ey Feruz, ul dilbar bukun,
 Ko'nglig'a ta'sir qilmish ohu afg'onim mening.

Ketur soqiyo bodai la'lrang,
 Oning nash'asidin bo'lub bedarang.
 Solay sho'ri g'avg'o jahon ahlig'a,

Na Rumu na Rusu na qolsun Farang.
 Balovu g'ami ishq ko'hsorida
 Erurman jayon sheri g'orron palang.
 Ki to ixtiyor ayladim ishqini,
 Yetar ko'hi g'amdin boshim uzra sang.
 Balo dashtidayu ishq sahosida,
 Ko'zum xira bo'l mish, oyoq dog'i lang.
 Jununim ziyod o'lsa har dam netong,
 Nigorim bag'oyat erur sho'xi shang.
 Agar jam' bo'lsa jahon mahvashi,
 Bo'la olmag'ay ul pari birla tang.
 Vafo ko'r mayin hech bir do'stdin,
 Bo'lubman jahon ahlidin asru tang.
 Tama qilma dahr ichra har dundin,
 Tamadin borur elga nomusu nang.
 Tavozeni ayla o'zingga shior,
 Havo birla nafsingga berma malang.
 Bu bazm ichra Feruzga dam-badam,
 Ketur soqiyo bodai la'lrang.
 * * *

Bazmimg'a keldi bu kecha bir sarvqomat, ey ko'ngul
 Boshdin oyoqidur oning koni malohat, ey ko'ngul.
 Boqib ko'z uchidin qijo pinhon agar qilsa nigoh,
 Bordir aning har boqishi yuz jonga ofat, ey ko'ngul.
 Bo'l shodu xurram, ko'rguzub tutti sanga ul mug'bacha
 O'z ilki birla jomi may lutfu muruvvat, ey ko'ngul.
 Avval dedim tark aylagil ishqini, bovar qilmading
 Qilma jafosidin oning emdi shikoyat, ey ko'ngul.
 Sarv ila gul gulshan aro gar ko'rsa qaddu orazin
 Tushgay alarning boshiga sho'ri qiyomat, ey ko'ngul.
 To ul parivash dilrabo ishqiga bo'ldim mubtalo,
 Zuhd ahli ko'b qildi manga ta'nus malomat, ey ko'ngul.
 Chun tiyra kulbam ayladi ravshan mahi ruxsoridin
 Hijron qorong'u shomidin topding farog'at, ey ko'ngul.
 Feruz o'lub baxting ul oy vaslig'a yetsang, neajab,
 Chekmish eding hijronida ko'p ranju mehnat, ey ko'ngul.
 * * *

Yorab o'lg'aymu tuyassar manga jonon ila bazm,
 Sochi sunbul, yuzp gul, lablari xandon ila bazm
 Bir kecha hujrani ag'yordin aylab holi,
 Etmak bo'lg'aymu ravo yori qadrdon ila bazm.
 Aylasam mehri uzori bila ko'zni ravshan,
 Zarra andoqki kilur mehri duraxshon ila bazm.
 Sharh etib hajrida kechgan qatig' ahvolimi,
 Tongg'acha aylasam ul sho'xi suxandon ila bazm.
 Solibon bo'ynig'a ilkimni, so'rub la'lidan,
 Aylasam no'sh labi dardima darmon ila bazm.
 G'amu anduh uyidan hazrati Ya'qub kibi,
 Chiqibon shod o'lub etsam mahi Kan'on ila bazm.
 Baxti yovarlig' ila Feruz aylab iqbol,
 Yorab o'lg'aymu tuyassar manga jonon ila bazm.
 * * *

Iki mahvash bu kecha bazmim aro tutdi maqom,
 Birisi mehri duraxshon, biridur mohi tamom.
 Biri o'ltursa g'azabdin, biri toza jon berur,
 Biri bo'lsa talx hadis, biridur shirin kalom.
 Masti loyaqil qilurga majlis ahlini tamom,
 Biri olib shishani ilkiga, yana biri jom.
 Birini la'li labida zohir o'l mish sabzi xat,
 Husn Misrida biri Yusufg'adur qoyimmaqom.
 Birisi olib surohiy o'l turub ming noz ila,
 Biri kosa bermak uchun bazm aro aylab xirom.
 Birisi bazm ahli ko'zin ravshan aylar yuz ochib,
 Zulfi yuziga bo'lub birining niqobi mushkfom.
 Shonu ko'ngul bulbulin sayd ayladi ul iki sho'x,
 Biri xolin dona aylab, birisi zulfini dom.
 Ichgil ishrat jomini, Feruz, ul iki yor ila,
 Ul iki mahvashni o'lg'ay husni doim mustadom.

La'li shiriningki ta'rif aylab o'l mish shahdkom,
 Anvariyu Fazliyu Hoqoniyu Masnad mudom.
 Chashmi fattoningga nargisni nechuk tashbih etar,
 Sohibu Bedil, Hiloliy, Hofizi shirinkalom.
 Vah, ne yanglig' sharh qilg'ay orazing tavsfifini,
 Unsuriyu Asjadiyu Farruxu Sa'diy, Humom.
 Ko'rsa husning Layliyu Shirinni vasf etmas edi,
 Xisraviyu ham Navoiy, Jomiyu Shayx Nizom.
 O'xshatib bo'lmas yangi oyga muqavvas qoshlaring,
 Sayidoyu Nozimu Lutfiyu Kiromiy, Xisom.
 Sarvoso qomating vasfin qilurda lol o'lur,
 Andalibu Ravnaku Ziyarak masihi xushkalom.
 Ogahiyu Komilu Feruz, Xolis, Chokaring,
 Rojiyu Mirzoyu Akmal, Munisu Xokiy, G'ulom.

Sayri bog' etsang agar, ey sarv qaddu gulbadan,
 Sarv ayoqingga qo'yar bosh, chok etar gulpirahan.
 Aylamassan rahm oltundek ruhi zardim ko'rub,
 Dilraboliq rasmi bu nav' o'lgamu, ey siyntan?
 Ko'rsa raftoringni gar bog' ichra kabki xushxirom,
 Banda bo'lg'ay jilvayi qaddingga ul, andoqki man.
 Shona olib, yuz uza zulfling parishon aylagach,
 Yer yuzin qildi muattar bo'yи rayhonu suman.
 Bo'lmag'ay ozurda nishi kirpikimdin deb taning,
 Ko'rqaram, gar ko'z uyin mardum kibi qilsang vatan.
 Orazing bog'ida ikki nargising ko'rgan kishi
 Derki, Chin gulzori ichra kirmish ohuyi Xo'tan.
 Bazmi vasling ichra mahram aylagil Feruzni,
 Chunki hijroningda ul bechora chekmish ko'p mihan.

Qilurman yutub shavqi la'lingda qon
 Fig'onu fig'onu fig'onu fig'on.
 Yuzung to mani zordin aylading
 Nihonu nihonu nihonu nihon.
 Ko'zumga qorong'udir ondin beri
 Jahonu jahonu jahonu jahon.
 Tplarman ko'zung fitnasidin mudom
 Omonu omonu omonu omon.
 Erur qoshlaring ishq eli qatlige
 Kamonu kamonu kamonu kamon.
 Guli husnunga yetmasun dahrdin
 Xazonu xazonu xazonu xazon.
 Qil, ey sho'x, Feruz ko'ksini qil
 Makonu makonu makonu makon.

Bir dam aylab holima lutf oshkor, ey gulbadan,
 Kulgama gul-gul ochib kelgil uzor, ey gulbadan.
 Mushk isi bu tun dimog'imni muattar ayladi,
 Yuz uza yoydingmu zulfi mushkbor, ey gulbadan.
 Lablaring kavsar, qading to'bi, yuzung jannat guli,
 Har so'zung bir gavharedur obdor, ey gulbadan.
 Yuz ochib chun sayri bog' aylarga kelding, aylading
 Gul yuzungga bulbuli ko'nglumni zor, ey gulbadan.
 Oshiqi beqaroringman, vafo aylab manga,
 Aylagil ma'shuqlikn ixtiyor, ey gulbadan.
 Orazi xurshid timsoling tamoshlo aylagach,
 Zarra yanglig' ko'nglun o'ldi beqaror, ey gulbadan.
 Zulfu qadding ishtiyoyqida falakka chirmashur
 Har tun ohimdin suud etgan sharor, ey gulbadan.
 Kirgil og'ushimg'a jon ichra alif yanglig' bo'lub,
 Dilraboliq shevasin aylab shior, ey gulbadan.
 Ne esa ko'nglungda koming tangri mavjud aylasun,
 Doim o'l Feruz baxting birla yor, ey gulbadan.

Orazing davrida har yon zulfi anbarmu ekan?!

Yo'qsa, ganj ustida yotg'on ikki ajdarmu ekan?!

Yuzlaring may tobidin qilg'on araqlarmu ayon,

Mohi anvar davrida bir necha axtarmu ekan?!
 Tishlaring durmu bo'lur zohir tabassum aylagach,
 Huqqayi yoqut aro bir necha gavharmu ekan?!

Ko'zlariningdurmu iki qosh ostida qilg'on makon,
 Dayr toqi ichra yoxud ikki kofarmu ekan?!

La'li jonbaxshida bormu xoli mushkin, yo'q es
 Chashmaxsh hayvonda yozilg'on nuqatlarmu ekan?!

Orazidin tiyra kulbam ravshan etgan bu kecha
 Mohi anvarmu va yo ul huri paykarmu ekan?!

Elni hayron aylagan, Feruz, husnig'a sening
 Dilbaringmu yo bizing sarvu sumanbarmu ekan?!

* * *

* * *

Manga, ey dirlrabo, muncha itob etmak nedur, bilmon,
 Hazin jonimg'a javring behisob etmak nedur, bilmon.
 Chekib yillar firoqing ranjimi, topsam agar vaslin
 Ketarga umrdek bir dam shitob etmak nedur, bilmon.
 Erur ko'nglum firoqing ichra ashkim selidin vayron,
 Yana ortuqroq oni xarob etmak nedur, bilmon.
 Yoqib ishqing o'tig'a sarbasar joni nizorim ham
 Kuyuk bag'rim kabob uzra kabob etmak nedur, bilmon.
 Bu gulshanda ochilmoq xorsiz gul mumkin o'lg'onmu,
 Nigoro, mendin asru ijtinob etmak nedur, bilmon.
 Xumori bodayi vasling bo'lub Feruz, ag'yoring
 Sharobi lutf birla komyob etmak nedur, bilmon.
 Keldingmu ibodatg'a, ey mahliqo, bukun,
 Yetushti qudumingdin dardimga davo bukun.
 O'nsam labi jonbaxshing, jonimga yetar rohat,
 Bo'lmoqing anga mone' bo'lg'aymu ravo bukun.
 Jurmim nedur, ey mahvash, bilmasman, ayon etgil,
 Dahring bo'ladur afzun har lahza mango bukun.
 Aqlu xiradim olib, rasvoyi jahon etding,
 Bir jilva qilib zohir, ey ko'zi qaro, bukun.
 O'lma akka yovuq yetdim tortib g'ami hijroning,
 Holimg'a karam aylab, man sori qaro bukun.
 Ey soqiyi gulchehra, jomingni qilib mul-mul,
 Qilg'il mani zoringg'a paydar-pay ato bukun.
 Qoshu ko'zungga qurban bo'lsa, neajab, Feruz,
 San kibi parivashni yetkundi xudo bukun.

* * *

Ayb emastur lutf ummid aylasam jonondin,
 Rishtayi ummid uzmas bandasi sultondin.
 Vaslin aylab orzu tun-kun ajab hayratdaman,
 Don to'kub yosh o'rnig'a bu chashmi xunafshondin.
 Gar ko'rib majnunlig'imni ishqida laylivashim,
 Aylamas zohir tabassum ul labi xandondin.
 Vah, nechuk zolimdurur jonus ko'ngulga yettusi,
 Dambadam zulmu sitam ul nargisi fattondin.
 Olma ko'zgu ilkinga husning tamosho qilgoli,
 Qil tamosho orazing bu diydayi giryondin.
 Har kishi bosh o'ynay olmas ishqning maydonida,
 O'ynag'oy, boshin ul odam kechsa avval jondin.
 Ishqni ko'ngulda pinhon asramoq mushkuldu,
 Zohir o'lgay oshiq etgan nolayu afg'ondin.
 Bevafodur bu jahon ra'nosi, billah, ey ko'ngul
 Ko'rgan ermastur burung'ilar vafo davrondin.
 Yolborib boshim oyoqiga qo'yub Feruzdek,
 Ayb emastur lutf ummid aylasam jonondin.

* * *

Jafo qilmoqdin hazar qil jonima, ey nozanin,
 Haq kalomida demishdur "la-yuhibus-s-zolimin".
 Har necha javr aylasang ishqiningi tark etmas ko'ngul,
 Bu so'zummi bovar etmassan agar ichkum yamin.
 Yetsa jonondin jafo, sabr ayla, ey mahzun ko'ngul,
 Sabr qilg'on haqqida nozil "yuhibus-s-sobirin".
 Ey sitamgar, aylagil mazlum ohidin hazar,
 Ne uchunkim kelgusidur larzaga arshi barin.
 Saqlasun solim havodis tundbodidin mudom,

Naxl qaddingni saning halloki rabb-ul-olamin.
 Tishlaring durmu labing qilsa tabassum ko'rurun,
 Yo magar yoqut huqqa ichradur durri samin.
 Ko'rmadi davron ko'zi yillar o'tub bu dahr aro
 Sen kibi shirin lab uzra g'addoru mahjabin.
 La'li mayguning xayoli birladur qone' mudom,
 Obihayvon orzusin aylamas joni hazin.
 Bo'l'usi Feruz so'zidin boshing uzra nisor,
 Yuz ochib kelsang agar majlis aro ey nozanin.
 * * *

Erur javring menning dardimga darmon,
 Na darmon, balkidur, jismim aro jon.

Bilur holi parishonimni ulkim,
 Erur gar dilbari kokil parishon.

Firoqida ishmidtur kecha-kunduz

Hazin bulbul kibi faryodu afg'on.

Bo'lur jonu ko'ngul qurban oning,

Qadi sarvin bu yon qilsa xiromon.

Qilib nihon yuzin man notavondin,

Ko'zumni qildi hijronida giryon.

Ko'rub rahm aylamas holi xarobim,

G'ami ishqqi aro ul nomusulmon.

Ochib xurshiddek ruxsorin ul oy

Ko'ziga ayladi ko'zumni hayron.

Qilib lutfu karam ul sho'xi tarso,

Kelib bazmimni qildi rashki so'zon.

Bo'lub Feruz baxting, ey sumanbar,

Hamisha bo'lg'osan masruru xandon.

* * *

Payvasta qoshi shaklidur ul chashmi jodu ustina,

Bir charg'kim, yozmish qanot qasd aylab ohu ustina.

Nazzora qilgil orazi uzra xatig'a har zamon,

Gar mavji javhar ko'rmasapg bir sof ko'zgu ustina.

Mehrimiz o'l'mushmudur gulgun shafaq ichra nihon

Kiymish va yo gulrang to'n ul sho'xi gulro' ustina.

Ko'nglum netong siy wholek har lahma qilsa izardrob

Kim ul yuz o'tidin erib suv bo'lgusi suv ustina.

Laylivangamning ishqida majmunlig'im ko'rgan kishi

Holimga kulgular qilur izhor kulgu ustina.

Xatdurmu ruxsori uza yohud musaxxar qilg'oli

Chin mulkinining kelmushmudur afvoji hindu ustina.

Zulfi xatining hajrida boshimg'a aylarlar hujum

G'oyatsiz anduhu alam yuz nav' qayg'u ustina.

Yog'du kun o'ldi ko'zlarim oldida shomi tordek.

Aylarga pinhon yuzlarin chun yozdi gesu ustina.

Vah naylayin Feruz, ul qotil g'azab yoyin chekib,

Mujgon o'qin tez otgali chin solmish abro' ustina.

* * *

Ayo, berahmi xo'boni zamona,

Mani hijronda qo'yma jovidona.

Sanga arz aylaram rozi dilimni,

Eshit arzimni ko'rguzmay bahona.

Visolingda bo'lub ag'yor xushhol,

Mani hajring g'ami yetkurdji jona.

Hadangi g'amzanga jismi nizoram,

Tarahhum qilmay aylarsan nishona.

Ne bo'lgaykim, so'rub Feruz holin,

Agar bo'lsang anga yori yagona.

* * *

Yorab, ul oy vaslini aylab tuyassar bu kecha,

Orazi mehridin et bazmim munavvar bu kecha.

Vah, nechuk asrag'ayman do'stlarkim, qilg'usi

Qatlama har dam ishorat chashmi kofar bu kecha.

Ne ajab, qilsam tafoxur ahli ushshoq ichra man,

Keldi, qildi xoki poyin boshg'a afsar bu kecha.

Soqyo, emdi karam aylab mani sarmast qil,

Bazmima kelmishdurur bir nozparvar bu kecha.

Jong'a yetdim javru ozoring chekib subhu maso,

Rahm qil holimg'a, ey sho'xi jafokor bu kecha.
 Oy kibi farrux uzorig'a beribdur o'zga zeb,
 Sochilib har sorig'a zulfi muanbar bu kecha.
 Ne jahonorjamol erdiki, bir ko'rma bila
 Ayladi Feruzni ishqida muztar bu kecha.
 * * *

Rahm etib hajrida holimg'a nigorim bu kecha,
 Majlisig'a ayladi taklif yorim bu kecha.
 Vosil o'lsm bazmig'a sen ham payopay may tutub,
 Soqyo, berg'il necha yillig' xumorim bu kecha.
 Aylagil sarmast beparvojenikim, yig'labon,
 Arz etay surtub oyoqpga uzorim bu kecha.
 Bazm aro gar mast ham beixtiyor o'lsm netong
 Kim, qo'lumdin oldi ul oy ixtiyorim bu kecha.
 Aylamang g'amdin gumonkim giryai shodi erur,
 Jomdek qon to'ksa chashmi ashkborim bu kecha.
 Ey mug'anniy, olmayin orom tuz vaznni saqil,
 Toki sokin bo'lg'ay oromu qarorim bu kecha.
 Boru yo'q nag'mang yeturgil majlis ahli sam'ig'a
 Kim, fido sozingg'a aylay yo'qu borim bu kecha.
 Ey falak, mehringni yotroq ayla mag'ribda nihoya,
 Furqat ichra haddin oshti intizorim bu kecha.
 Gardini garduni dundin g'am emas Feruzg'a,
 Chunki lutf etti manga chobuksuvorim bu kecha.
 * * *

Guliston ichra ul dilbar kelur mastona-mastona,
 Bo'lur sham'i ruhig'a jon qushi parvona-parvona.
 Tutub zuhdu vara' tarkini kirdim dayr aro bu tun
 Ketur, soqiy, manga emdi to'la paymona-paymona.
 Qilur javru sitam, qilmas tarahhum man hazing'a
 Desam rozi diliimni boshig'a aylopa-aylona.
 Borib ag'yor bazmig'a, ichib ishrat mayin tun-kun,
 Meni hijronda aylab g'am bilan hamxona-hamxona.
 Qilib pinhon yuzin man zori hayrondin parizodim,
 Firoqida meni qildi ajab devona-devona.
 Havas aylarsan, ey dil, ishq dashti sayrini qilmon
 Kechib boshdin, qadam qo'yemoq kerak mardona-mardona.
 Qilib zohir bukun lutfu karam, Feruz, dildoring
 Kelur koming ravo qilmoq uchun sallona-sallona.
 * * *

Bir pari tushda manga oraz namoyon ayladi,
 Ko'rgach-o'q, hushu xirad mulkini vayron ayladi.
 G'amzayu nozu tag'oful birla imo aylabon,
 Ko'zlari jonimni olib qasdi imon ayladi.
 Otashin gul bargini eltid labi xandoniga,
 Jon ila ko'nglumni rashk o'tiga so'zon ayladi.
 Zulfi mushkini yuzi uzra parishon aylabon,
 Ko'zlarimni tiyra, ko'nglumni parishon ayladi.
 Chunki ruxsori jahontobin ko'z ochtim ko'rgali,
 Orazi mehrin niqob ostida pinhon ayladi.
 Siynasi uzra ko'rub gulgun kabosi chokini,
 Gulshan ichra gul dag'i choki giribon ayladi.
 Seskanib uyg'ondim ersa, topmadim ondin asar,
 Ushbu tush Majiun kibi aqlimni hayron ayladi.
 Yo rab, uyg'oqliqda ro'zi qil visoli davlatin
 Kim, mani oshifta bir gul yuzli jonon ayladi.
 Mumkin o'lg'aymu visoli ichra bir kun shodlig',
 Bo'yakim Feruzni hajrida giryon ayladi.
 * * *

Bu kecha bazmim aro ne bo'ldi, yorim kelmadi,
 O'rtadi hijron o'tiga yo'qu borim, kelmadi.
 Kel deganda, "Yaxshi, kelgum", deb edi, faryodkim,
 Bilmadimkim, ne sabab bo'ldi, nigorim kelmadi.
 Necha kundurkim, qolib hijron aro mahjurman,
 Tarqaturg'a jomi vaslidin xumorim kelmadi.
 Kelmakiga va'da aylab erdi bu tun, ohkim,
 Haddidin yo'lida oshti intizorim, kelmadi.
 Orazi hijronida olam qorong'udur manga,

Ravshan aylarga yuzidin shomi torim kelmadi.
 Bo'ldi bazmim gulshani ketgach xazoni bog'dek,
 Oni aylarga guliston navbahorim kelmadi.
 Xor aro guldek bo'lurg'a xo'blar o'rtasida,
 Sarvqaddu guljabinu guluzorim kelmadi.
 Ishq sirrin kimga sharh aylay man emdi, do'stlar,
 Mahrami rozi nihonu oshkorim kelmadi.
 Nola aylarman tunu kun hajrida Feruzdek,
 Ko'ngliga ta'sir etib afg'oni zorim kelmadi.

Yor so'org'a man hazin holini kelmadi, netay?
 Ishqi o'tpga kuyg'anym ko'ziga ilmadi, netay?
 Garchi jahonda yo'qturur man kabi ishqichra zor
 Holima rahm bir nafas umrida qilmadi, netay?
 Masti sharobi husn o'lub ko'zlarn xobu nozdin,
 Holima qilg'oli nazar bir dam oyilmadi, netay?
 Har necha man hazinig'a qildi visoli va'dasin,
 Va'dasi ichra bir nafas, lek topilmadi, netay?
 Ishq eli shohiman, vale oshiqining qatorida
 Ushbu hazinin ul pari ko'ziga ilmadi, netay?
 Masnaviyalar

Onga hamdkim hayyi dono durur,
 Bori ilmi qudratda yakto durur.
 Yaratti to'quiz harfni mustadir,
 Birovni shah etti, birovni vazir.
 Jahondorlardur kamin bandasi,
 Sarafrozlardur sarafkandas.
 Birovga berib husni beintiho,
 Birovni qilib ishq ila mutbalo.
 Anga bermayin zarra yanglig' vafo,
 Muning peshasin qildi chekmak jafo.
 Ul aylab sitam oshiqig'a shior,
 Bu aylab anga naqdi jonin nisor.
 Birovni qilib oshgoda pokboz,
 Onga ko'rguzub yori ajzu niyoz.
 Bo'lub bir-biriga base mehribon,
 Qilib do'stlig' oshkoru nihon.
 Agar tushsalar bir-biridin yiroq,
 Chekib ko'kka afg'on debon al-firoq.
 Na haddim demak anga loyiq sano
 Ki, borman base ojizu benavo.
 Xudo hamdidin so'ngra tortib qalam,
 Payambar vurudini aylay raqam.
 Zixi sururikim erur koinot,
 Tufayli erur gar jamodu nabol.
 Shafi'ul-umam Sayyidul-Mursalin,
 Bo'lib payk anga Jabroil oyin.
 Gahi arshi a'loga aylab uruj,
 G'azo qilgoli goh aylab xuruj.
 Juhon mulkini islomobod etib,
 Baso, yaxshi ishlarni bunyod etib.
 Chekib osiyi ummat uchun ko'b ta'b,
 O'tub umri qayg'u birla ro'zu shab.
 Shariat bila ding'a berdi rivoj,
 Shahanshohlar boshidin oldi toj.
 Ilohiy erurman base sharmisor,
 Gunah dudi birla siyoh ro'zgor.
 Mani aylab ul do'stungg'a qariyb,
 Shafoat manga ondin etgil nasib.
 Salom o'lsun avlodu ashobiga.
 Bori ahli ahfodu ahbobig'a.
 Alarg'a xudo rahmati dambadam,
 Fuzun o'lsun, bo'lmasun hech kam.
 Alardin so'ng, ey nodiri ro'zgor,
 Yo'lungg'a duo durrin aylab nisor.
 Debon haddin ortuq duoi salom,
 Sanga arzi holimni aylay payom.

Salom, ey shahi qaddi zebo jamol!
 Salom, ey guli bo'stoni kamol!
 Salom, ey parivash maloyik sifat,
 So'zidin o'luk tanga bergan hayot!
 Salom, ey sabohat bahrida mehr,
 Salom, ey falak kadar xurshid chehr!
 Salom, ey sumanbo'y i shirinsuxan,
 Salom, ey jafoshevayu javrfan!
 Salom, ey ko'zi jong'a bo'lgon balo,
 Sochi kufri imonga bo'lgon balo!
 Salom, ey hayo bo'stonida vard,
 Bari xo'blar ichra yaktoyu fard.
 Duodin so'ng, ey dilbari xush maqol,
 Qilurman sanga bu sifat arzi hol.
 Eshit barcha arzimni solib quloq,
 Qilay sharhi rozimni boshdin oyoq.
 Desam so'z chuchuk yo der ersam achig',
 Zamiringga kelturma oni qatig'.
 Sanga arzi holimni aylay bayon,
 Nihon borchha sirimni dog'i ayon.
 Ayo sho'xi yakto, barnoi dahr,
 Yetushgay yuzung nuridin ko'zga bahr.
 Edim bazmi vasling aro asru shod,
 Tiriklikdin erding manga san murod.
 Topar erdi bazmingda ko'nglum surur,
 Jamolingdin erdi ko'zum ichra nur.
 Tunu kun yoningda anising edim,
 Xaloyu maloda jalising edim.
 Edi shod ko'nglum topib suhbating,
 Ulug' davlat anglar edim qurbating.
 Sochingdin maqomim muattar edi,
 Ko'zum orazingdin muavvar edi.
 Labingdin edi jonim ichra huzur,
 So'zungdin topar erdi ko'nglum surur.
 Gohi qo'l solib noz ila bo'y numa,
 Kirar erding o'ynab gahi qo'y numa.
 Yuzungni agar ko'rmasam bir zamon,
 Ko'zumga qorong'u edi bu jahon.
 Gahikim, jamolingga qilsam nazar,
 Bo'lur erdi jonusi ko'ngul bahravar.
 Gahi islabon mushkdek kokiling,
 Bo'lur erdim oshiftai bediling.
 Gahi ko'z solib anbarnn xolingga,
 Gahi orazi mehri timsolingga.
 Junundin gar yetsa oshuftahol,
 Qilur erdi bu lek daf'i malol.
 Ko'zung noz ila ko'nglum olg'on zamon,
 Berur erdi la'ling yana toza jon.
 Tizzam ustida aylar erding maqom,
 Eding murg'i davlat kibi asru rom.
 Visoling xayol aylar erdim chunon,
 Sani onda hur aylar erdim gumon.
 Manga san dog'i ko'b eding mehribon,
 Edim go'y man jismu san anda jon.
 Base va'dai vasl aylab mudom,
 Yoningdin ayirmas eding subhu shom.
 Desang so'z manga anlar erding xitob,
 Eshitir eding posuxi bo savob.
 Bo'lub tun-kun iqboldek hamdaming,
 Edim baxtdek munisu mahraming.
 Na der ersam aytur edim borho.
 San oniig birin etmas erding baho.
 Kilib goh-gohi manga iltifot.
 Der erding ayo sho'xi olip sifot.
 Ki: "Ey oshiqi xasta holim mening,
 Rahi ishq aro poymolim mening.
 O'ziga visolimni anglab mahol,
 Kechurgan kunin yig'labon mohu sol.

Qolib furqatim ichra zoru nizor,
 Kechurgan qaro aylabon ro'zgor.
 Labim yodi bag'rini qon aylagan,
 Visolim uchun sadqa jon aylagan.
 Sochim fikrida bo'lgon oshuftahol,
 G'ami furqatim ichra chekkan malol.
 Chekib dardi xijron aro ko'b ta'b,
 Shabu ro'z vaslimni etgach talab.
 Bu damkim, berib haq muroding sening,
 Bo'lub dastgnr z'tiqoding sening.
 Qilib tangri lutfini yovar sanga,
 Visolimni etmish tuyassar sanga.
 Qilib emdi bazmi visol ichra shukr,
 Tamoshoyi husni jamol ichra shukr.
 Bu so'zlar bilan durafshonlig' qilib,
 Burun bu sifat mehribonlig' qilib.
 Nedin so'ngra aylab manga qasdi jon,
 Firoq o'tig'a ko'ksum etding nishon.
 Na go'stohlik zohir etdim sango,
 Hazin joninga hajr ko'ding ravo.
 Dedimmu yuzung mehrimi oftob?
 Qading sarv deb ayladimmu xitob?
 Muqavvas qoshingni dedimmu xilol?
 Yetushti sanga muncha mandin malol?
 Dedimmu sani yoki gunchadahon?
 Mening bag'rim etding firoq ichra qon?
 Dedimmu ikki chashming ohuyi Chnn?
 Chekibsan mehnat qatlama tig'u kin?
 Soching bo'yisi ranhon berurmu dedim?
 O'lukka so'zung jon berurmu dedim?
 Visol ichra qadriningni bilmadim,
 Va yo xizmatingni bilib qilmadim.
 Gunohim nedur, avkal etgal bayon,
 So'ngida na qilsang o'zing bil ravon.
 Qilurmu kini muncha badxo'ylig',
 Na badxo'ylingkim, jafojo'ylig'.
 Berib goh qahr aylabon xo'b azob,
 Qilib noz ila goh bag'rin kabob.
 Jafoyut sitam tig'in o'z yorig'a,
 Chekib ilkini sung'ay ozorig'a.
 Tariqi muruvvat bu nav' o'lg'omu?
 Vafoyut futuvvat bu nav' o'lg'omu?
 Burun ko'rguzub ancha mehru vafo,
 So'ngida qilib muncha javru jafo.
 Bilursan raqibim bila boda no'sh,
 Ichim qon bo'lub man chekarman xurush.
 Bo'lub bazmi vaslingda xushdil raqib
 Yetib man hazindin o'larg'a qariyb.
 Falon qayda deb aylamay hech yod,
 Ichib o'zgalar birla jomi murod.
 Kilib emdi kahru itobingni bas,
 Tarahhum qil ahvolima bir nafas.
 Gul husn erur asru, bee'tibor,
 Ki, bormu jahonda xazonsiz bahor.
 G'animat bilib husn davronini,
 Ko'b o'rtatma ishq ahlining jonini.
 Sanga ham falak zulme etiboshkor,
 Banogah birov ishqida qilsa zor.
 Ko'ra olmayin yordin iltifot,
 Topo olmayin ishqdin ham najot.
 Qolib dardi hijron aro mohu sol,
 Visoliga yetmoqlik o'lsa mahol.
 Xayoli labidin ko'zung to'ksa qon,
 Qoshi yodidin qadding o'lsa kamon
 Musalsal sochi fikridin pechtob,
 Tushub jismingga aylasang iztirob.
 Firoq ichra dardu alammu bu,
 Agar qilsalar boshing uzra g'ulu.

Meningdek tushub ayru dildordin,
 Yiroq bo'lmayin bir dam ozordin.
 Zamiring bo'lub hajr aro beqaror,
 Tong otg'uncha yig'lar esang zor-zor.
 Hamul dam bilib holim, ey bevafo,
 Tushub yodinga manga qilg'on jafo.
 Bilursan firoq ichra na bor ekan,
 Nechuk joni zorimda ozor ekan.
 Kel emdi karam oshkor aylabon,
 Muhabbat rusumin shior aylabon.
 Qilib qadrim avvalg'idin ham baland,
 Yana aylabon lutf ila arjumand.
 Visoling harimig'a xos et mani!
 Judoliq g'amidin xalos et mani!
 Sani dog'i ul qodiri zul-jalol,
 Qilib husn bo'stonida barkamol.
 Xazondin vujuding gulin asrasun,
 Mudom o'z panohn aro saqlasun!
 Zamiringga yetkurmanin hech ranj,
 Nihoyatsiz etsun ato sanga ganj.
 Qilib suhbat Feruz ila shodmon,
 Qiyomatgacha aylasun komron.
 Agarchi bu yanglig' so'zum topti tul,
 Ravo ko'rmayin ayb, qilg'il qabul.
 Burung'udek aylab yana iltifot,
 Hazin ko'ngluma dariddin ber najot.
 Bu erdi payomimki, yozdim tamom,
 Bas etdim duo birla so'z vassalom.
 Yana qolmasun, ey, saodat nishon,
 Zamiringg'a mahf bu so'z nogahon.
 Agar mundin ortuqroq aylab jafo,
 Yana hajr ila aylasang mubtalo.
 Meni bilki, hech qolmamish quvvatim,
 Ko'ngul ichra na sabr ila toqatim.
 Bu yanglig firoq ichra tortib azob,
 Adam sori gar aylar ersam shitob.
 Bo'lub hashr aro dodxohing saning,
 Xudo nazdida tutg'ayman domaning.

 Soqyo, tut manga karam jomin,
 To'ldurub vasli rohi gulfomin.
 Rangi bo'lsun aqiqdin rangin,
 Ta'mib T"obi hayotdin shirin.
 Jon topib lazzatidin oning qut,
 Dilkusho bo'lsun o'ylikim yoqut.
 May dema oni sharbati jon de,
 Sharbati jon de, la'li jonon de.
 Lab-balab aylay oni paydar-pay,
 Birla chiqsun boshimg'a bazm aro may.
 Ki firoq ichra zormen asru,
 Muddatidur, xummormen asru.
 Toki no'sh aylab oni mastona,
 Boshlayin behudona afsona.
 Boshima ne kelibdurur bir-bir,
 Xoma birla borin qilay tahrir.
 Gah yozib hajru dard ila alamin,
 Gah bitay yori bevafo sitamin.
 Gah falak iyakidin shikoyat etay,
 Haqgaki, shukri benihoyat etay.
 Bu sifat so'zlar aylabon holi,
 Ko'nglum aylay maloldin xoli.
 Vah, na xush kun edi zamone visol.
 Xush kechib bazmi vasl aro mohu sol.
 Yorima baxtdek bo'lub hamdam,
 Doim iqboldek edim mahram.
 Ko'nglum erdi visolidin gulshan,
 Ko'zum erdi jamolidin ravshan.
 Jon topib la'Inning ziloli bila,

Shod edim jonfizo maqoli bila.
 Ko'rmak ila ko'ngulda surur,
 Jon topar erdi suhbatida huzur.
 Ko'zi qatlimg'a aylasa imo,
 La'li jonbaxshi edi Masihos.
 Mijasi jonima o'n otsa ravon,
 Ko'ksim aylar edpm ul o'qg'a nishon.
 Ko'rubon qoshini nechukkim "nun",
 Qaddim aylar edim qoshida nighun.
 Yonima kelsa ul qadi shamshod,
 Ravza to'bisin etmas erdim yod.
 Sunbul zulfin eslabon har dam,
 Dahr anduhidin edim begam.
 Anbarin holini ko'rub har yon,
 Sog'inur erdim ani nuqtai jon.
 Tishin inju xayol etar erdim,
 Labini fahmi bol etar erdim.
 Og'zikim bor edi xat ichra nihon,
 Zulmat ichra bu chashmai hayvon.
 Goh zohiri takallum aylar edi,
 Goh pinhon tabassum aylar edi.
 Do'stim erdi zohiru pinhon,
 Go'y man jism erdimu ul jon.
 Kechayu kunduz ichra bir soat,
 Mansizin yo'q edi onga toqat.
 Gah solib gul kibi uzorig'a ko'z,
 Gah nihoni debon quloqig'a so'z.
 Siypabon gah kumush badanni,
 O'pubon gah shakkari dahanni.
 Der edim: "Paykaring erur siymin!
 Der edi: "Bu so'zung emastur chin!
 Der edim: "Bordurur labnng chun qand!
 Der edi: - Kilma qandg'a momand!
 Der edim: - Orazingmu yoki quyosh?
 Der edi: - Kunda bormudur ko'zu qosh?
 Der edim: "Ko'zlarig'gmu ohuni Chin?
 Der edi: "Onda bormu zulm ila kin.
 Der edim: - Qomatingmu sarvi ravon?
 Der edi: - Sendadurmu jilva ayon?
 Der edim: - Kokilingmudur pechon?
 Der edi: "Ganji husnum uzra ilon!
 Der edim: "Yuz uzra tushubmu nuqat?
 Der edi: "Xol erur so'z etma g'alat!
 Der edim: "Qoshlaring erurmu hilol?
 Der edi: "Ul bo'lurmu zebi jamol?
 Der edim: "Tishlaringmudur inju?
 Der edi: - Oncha sof emas lo"lu!
 Der edim: "Lablaring erur kavsar!
 Der edi: "Onda yo'q safodin asar!
 Der edim: "San parimusan, ey jon?
 Der edi: "Man parisifat inson!
 Der edim: "Hurdek erursan xo'b!
 Der edi: "Mancha ul emas margub!
 Aylar erdim man ondin oncha savol,
 Berur erdi javobin ul filhol.
 Der edi: "Sansan oshiqi zorim,
 Dahr aro sandin o'zga yo'q yorim.
 Ko'zi gar borsa uyqug'a nogoh,
 Ishqidin tortibon man o'tlug' oh.
 Bulbuloso chekib navoyu fig'on,
 Bul husnig'a bor edim hayron.
 Labidin bo'sa aylab ohista,
 Topar erdim farax mani xasta.
 Rashkdin subh etib yaqosini chok,
 Tuzmas erdi bu bazmima aflok.
 Bu sifat yori mehrini afzun,
 Ko'rubon zulm fosh etib gardun.
 Mani oxir ul oydin etti yiroq,

Soldi joning'a dog'i dardi firoq.
 Zori joninga zulm ko'rdi ravo,
 Mani ul yor jondin etdi judo.
 Mani dildori mehribonimdin,
 Oyirib o't chiqordi jonomdin.
 Chun mening budim etti charx nobud,
 Har necha kuysam emdi yo'qtur sud.
 Ko'nglum ar topmasa visol ila bahr,
 Ne karax bo'lmoqi makonni shahr?
 Kadi gar bo'lmas ersa jilvanamo,
 Sarvni naylayin mani shaydo?
 Yuzi bo'lmas esa manga manzur,
 Ne kerak mardum ko'zum aro nur?
 Qulqim gar so'zin eshitmas esa,
 Netayin so'z agar Masih desa?
 Topa olmas esam labidin kom,
 Komim ermasturur mani gulfom
 Yuzidin apru naylayin gulni,
 Zulfi atridin ayru sunbulni?
 Ko'zi joninga bo'lmasa ofat,
 Naylayin umrima tilab muhlat?
 Ko'pi bo'lmas esa manga maskan,
 Naylabon ne qilay behishtni man?
 Yetmasa vaslidin ko'ngulga surur,
 Ne qilay hamdamim agar esa hur?
 So'rmasa yor holi zorimni,
 Hajrida joni beqarorimni.
 Ne kechar furqati aro manga hol,
 Bilmas ersa gar ul pari timsol.
 Bedilim yo'qmu deb va yoxud bor,
 Xabare tutmas agar dildor.
 Mani mahzunin ul qadi shamshod,
 Aylamas ersa oshiqim deb yod.
 Kechurub man firoq aro ayyom,
 Topsa agyor bazmi vaslida kom.
 Bo'lubon manga zahri hajr nasib,
 Sharbatli vaslin etsa no'sh raqib.
 Yutubon man labi firoqida qon,
 Bo'lsa ag'yor bazm aro xandon.
 Man bo'lub ishqibirla afsona,
 Shod esa suhbatida begona.
 Bu sifat bo'lsa yot manga
 Ne kerak dahr aro hayot manga.
 Dilbarim gar bu nav' qilsa jafo,
 Manga darkor emas hayot aslo.
 Vasl subhi gar o'lmasa umid,
 Ne qilay umrni tilab jovid.
 Ohkim, javr etib bahri dani
 Soldi oxir judolik ichra mani.
 Emdi bor ko'nglum ichra ne toqat,
 Jismi bemorim ichra ne quvvat.
 Na oyoqda yurur majolim bor,
 Sayr etib o'lthurur na holim bor.
 Na manga munglashurg'a bir mahram!
 Na manga yig'lashurg'a bir hamdam!
 Na manga bor jahonda bir g'amxor,
 To onga dardim aylasam izhor!
 Kimnikim o'zga do'st bilsam man,
 Joni zorimg'a ul bo'lub dushman.
 Aylabon har tarafga nazzora,
 Dardima hech topmayin chora.
 Bir makon ichra o'lthurub tanho,
 Yig'lamoqdur ishim sabohu maso.
 Goh-gohi qo'lumg'a olib rud,
 Tuzubon har dam oshiqona surud.
 Rost ohanglik qilib og'oz,
 Bo'lub ushshoqdek navo pardoz.
 O'tlug' abyotlar o'qub mani zor,

Chiqorib ko'kka ohi otashbor.
 Derman: Ey charx, bu nechuk oyin,
 Sangakim, bu sifat qilursan kin.
 Kim, mening yori mehribonimni,
 Oyirib yoqding o'tga jonimni.
 Bevafolig' rusumini tuzding,
 Manga bu pav' zulm ko'rguзding.
 Falaki kajravo sitamkoro,
 Nega qilg'ung manga bu nav' jafo?
 Qaro dedimmu orazi oling?
 Oq dedimmu yuzingdagi xoding?
 Yo bu so'zlar sanga esa ta'rif,
 Man dog'i bu sifat qilib tavsif.
 Sani dey bir ajuza makkora,
 Holing oqdur, vale yuzung qora.
 Aybparvarsan, hunari dushdgan,
 Doimo makru hiyladur sanga fan.
 Kim sevar yori birla xamogush,
 Bir zamon bo'lса tark o'lub sanga xuga.
 Ko'rguзub turfa behayoliqlar,
 O'rta yerga solib judoliqlar.
 Ko'ngliga yetkurub tuman ozor,
 Qilg'ung oxir firoq aro ani zor.
 Ko'zidin o'chsa tongg'acha uyqu,
 San emassan oning uchun qayg'u.
 Turfa berahm erursan zolim,
 Kim ilkingdin o'lmadi solim.
 Bir kishi yo'qli mandin istifsor,
 Aylabon degali na holing bor.
 Turfaroq buki ul hujasta nihod,
 Aqlu hushidshi aylagan barbod.
 Eshitib muncha ohu faryodpm,
 Oshiqlik deb bir anlamas yodim.
 Muncha ham bevafoliq o'lg'aymu?
 Bu sifat purjafoliq o'lg'aymu?
 Avval do'stslug'lar aylab fosh,
 So'ngra tuzmak nedur bu nav' maosh?
 Burun aylab vafoyu mehr shior,
 So'ngra qillyuq pedur bu nav' mador?
 Ko'nglum aylab burun visol ila shod,
 So'ng nedur muncha jonima bedod?
 Sobiqan aylab ahd ila paymon,
 Kishi bo'lgaymu so'ngra ofatijon.
 Ey ko'ngul, haqqa shukr aylayu bas,
 So'z uzatmoq bu nav' yaxshi emas.
 Kilmag'il charx javridin shikva,
 Yer ham bevafo deb etma gila.
 Boshingga ne kelur nihonu ayon,
 Kismati haqdin o'zga qilma gumon.
 Tangri qilg'on esa nekim taqdir,
 Bera olmas kishi anga tag'yir.
 Bir qaddin ko'rki o't sochib har yon,
 Raddin qichqurub bo'lub nolon.
 Ul dog'i beqaror o'ylaki sen,
 Ishq aro doimo zoru tanho men.
 Ishq bir o'tdurur, nechukkim barq,
 Aylamas shoh bila gadoki farq.
 Tushsa ondin ko'ngulga bir uchqun.
 Kuydurub boshiga solur qaro kun.
 Ishq aro garchi sabr erur mushkul,
 Sen oni pesha aylagil, ey dil.
 Bo'lubon sazmi vasl aro Feruz,
 Tun kuning bo'lsun iyd ila navro'z.
 Yor ila no'sh etib mayi gulfom,
 Sanga shoyad tuyassar o'lg'ay kom.
 Aylabon iltifotlar, jonon,
 Surgaysan to abadgacha davron.
 * * *

Sano hamdu xalloqi jahong'a,
 Xudovandi zaminu osmonga.
 Birovga husn berdi benihoyat,
 Birov ko'nglidin oldi sabru toqat.
 Durud o'lson oning payg'ambarig'a,
 Rasuli ham nabilar sarvarig'a.
 Yaratdi haq oni aylab mukarram,
 Tufayli birla o'n sakkiz ming olam.
 Oning avlodiyu ashobiga ham,
 Duo birla salom o'lson damo-dam.
 Bulardin so'ngra, ey sarvi gulandom,
 Sanga bo'lson salomim subh ila shom.
 Salom, ey dirlaboyi hur timsol,
 Salom, ey mahliqoni farrux iqbol!
 Salom, ey dirlaboyi pokiza anvor,
 Salom, ey guluzoru sarv raftor!
 Salom, ey gavhari koni sabohat,
 Salom, ey durri dareyi saodat!
 Salom, ey xo'bluq bo'stonida vard,
 Salom, ey husn iqlimi aro fard!
 Agarchi manda, ey sarvi diloro,
 Yo'q avsofing qilurg'a haddu yoro.
 Duo durrin yo'lungda aylab iysor,
 Bu yanglig' arzi hol aylarman izhor.
 Hamuldamkim, yuzungni ko'rdum, ey hur,
 Baloyi ishqing aylab jonima zo'r.
 Ko'ngulda qolmayin sabru qarorim,
 Ilikdin ketdi bilkull ixtiyorim.
 Visoling gun-ko'n aylab orzular,
 Ko'lungda tpnmay aylab justujo'lar.
 Junun ko'pi aro har yon yugurdum,
 Tilab bazmi visoling po'ya urdum.
 Bu yanglig' hol ila, ey sarviqomat,
 Talab aylab sani behaddu g'oyat.
 Manga iqbol o'lub ham baxt yovar,
 Visolingni xudo qildi tuyassar.
 Kecha kun man g'arib, ey sarvi ozod,
 Visoling bazmida erdim, base, shod.
 Labingdinki, nasibim erdi sharbat,
 So'zungdinki, topar erdim halovat.
 Quchar erdim gohi nozuk belingni,
 So'rар erdim gahi shirin tilingni.
 Gohi ilkimni bo'ynungg'a hamoyil,
 Qilur erdim yo'q erdi hech hoil.
 Dumog'im zulfi mushkining muattar,
 Qilur erdi gohi holi muanbar.
 O'par erdim gohi shahlo ko'zungni,
 Gohi tishlar edim gulgun yuzungni.
 Bilur erdim visoling rohati jon.
 Bo'lur erdim qoshing yoyig'a qurban,
 Kecha bo'lsa makonni qo'ynung erdi,
 Yoturda ilkim uzra bo'ynung erdi.
 Yuzungga yuz qo'yub, do'shing uzra do'sh
 Tong otg'uncha bo'lur erdim hamog'ush.
 Tun o'lg'onda bo'lub husnungga nozir,
 Yuzung ko'rmak bila xush erdi xotir.
 Jalisu mahraming doim man ordim.
 Sanga mehru muhabbat erdi pesha,
 Vafodin dam urar erding hamisha.
 Qilib o'z odaticha bevafoliq,
 Orag'a oqibat soldi judolik.
 Firoq ichra qolib man zoru giryon,
 Falakka yetkurub faryodu afg'on.
 Ki, shoyad topg'ayman vasling sori yul,
 Debon po'ya ururman sog' ila so'l.
 Na tinmoq bor manga, na bir tayanmoq,
 Ishim doim firoq o'tig'a yonmoq.
 Oyoqimdin ketib emdi majolim

Yurarga qolmamishdur hech holim.
 Kilib emdi qorong'u uyda maskan,
 Tuzub majnundek o'z holimg'a shevan.
 Gahi aylab visol ayyomini yod,
 Kilurman behuda ohu faryod.
 Gahi la'ling g'amida qon yutarman,
 Kading hajrida gah motam tutarman.
 Qadim yo aylamish fikri hiloling,
 Ko'nguldin toqatim olmiss xayoling.
 Belu og'zing xayoli, ey nigorim,
 Meni nobud etibdur yo'qu borim.
 Xususan ushbu dardim asru dushzor,
 Banogah yo'l topib vaslingg'a ag'yor.
 Ko'zi kimning yuzungga nozir o'lg'ay?
 Kim altofing bila xush xotir o'lg'ay?
 Kim erkan bodan vasling bila mast?
 Janobing tufroqig'a kim ekan past?
 Soching zanjiri birla kim ekan band?
 O'pub holing kim erkan shodu xursand?
 Bu yanglig' fikr birla subh to shom,
 G'amingda o'tkarurman yig'lab ayyom.
 Ko'rub man zordin mundoq tazallum,
 Birov yo'qkim, manga etgay tarahhum.
 Na yetkurgay sanga mandin salome,
 Na kelturgay manta sandin payome.
 Sanga holimni derdek bir kishim yo'q,
 Fig'on chekmakdin o'zga varzishim yo'q.
 Maal-qissa firoqingda mani zor,
 Bo'lurman bu sifat g'amga giriftor.
 Bu yerga tegru holim, ey sitamkor,
 Yetib san bo'lmaiding hargiz xabardor.
 Burung'i ahdu paymoning unutding,
 Muborak xotiring mandin sovutding.
 Bilib hajringda tun-kun izardrobim,
 Birovdin so'rakin holi xarobim.
 Gunohim ne edikim, ey parizod,
 Mani bir noma birla qilmading shod.
 Bu pav' o'lg'aymu rasmi dilrabolig',
 Tilab o'z oshnosidin judolig'.
 Raqibi birla yoru munis o'lg'ay,
 Birov bazmida sham'i majlis o'lg'ay.
 Sanga bu ishlar ermas erdi lozim,
 Visolingda raqib o'lgay mulozim.
 Xaloyiq ta'nidin ke bir uyolding,
 Ne etgan va'dani yodingg'a solding.
 Ajabkim, sandin, ey mahbubi nodir,
 Bu yanglig' bevafolig' bo'ldi sodir.
 Kel emdi, qayt bu afoli baddin,
 Oshurma nomunosib ishni haddin.
 Yana man zoringga aylab muruvvat,
 Muhabbat rasmi birla tutg'il ulfat.
 Burung'i va'dalarni yodingga sol,
 Mani qil bazmi vasling ichra xushhol.
 Duom uldur: "Sening yoshing uzalsun,
 Ko'rub farrux yuzung ko'z bahra olsun.
 Xudo afzun etib husni jamoling,
 Damadam ortsun fazli kamoling.
 Qulungman, san shoh, ey qaro ko'z,
 Yana mehru muhabbat sozini tuz.
 Mudom iqboli Feruznig bo'lub yor,
 Jahonda dushmaningdin qolman osor.
 Bo'lub olti jihatdin xotiring xush,
 Tarab jomin falak tutsun sanga ko'sh.
 Yetub umring tarab birla mohu sol,
 Mudom ul masnadu izzatda xushhol.
 Gahi yod aylagil bu zorini ham,
 Tarahhum birla ey barnoyi olam.
 * * *

Ey qodiri farruxi dono,
 Xalloq jahon basiru bino.
 Ne avvalingda erur bidont,
 Ne bordur oxiringga nihoyat.
 Mavjudsan, o'zga borchcha nobud,
 Borsan ikki kavn eliga ma'bud.
 Muhtojing erur gadoyu sulton,
 Lutfu karamingga yo'q haddu son.
 Man zorga ko'rguzub inoyat,
 Aylab shafqat, bilo nihoyat.
 Bergil nlkimga jomi tavfiq,
 Qilg'il meni shodkomi tavfiq.
 Kim, asru zaifu zor erurman,
 Osiyu gunohkor erurman.
 Dashti havas ichra qolmisham zor,
 Hirs ilkiga bo'l misham giriftor.
 Boshdin-oyoqim erur zalolat,
 Toatda ishimdurur kasolat.
 Tun-kun mayi g'aflat aylabon no'sh,
 Majnundek o'lub mudom madhush.
 Daryoyi gunahga o'zni solib,
 G'arqoyi jaholat ichra qolib.
 Bo'l mishmen asiri nafsi shayton,
 Jurmu gunahimga yo'q haddu son.
 Toatda garchi notavonman,
 Aylarda gunoh pahlavonman.
 Man xud bu sifatman asru gumroh,
 Holimdin o'zung erursan ogoh.
 Rahm ayla bu nav' holatimg'a,
 Chohi g'am aro malolatimg'a.
 Ko'b manda agarchi jurmi isyon,
 Jo'shon sanga lek bahri g'ufron.
 Sansan iki kavn aro panohim.
 Rahm aylabon afv qil gunohim.
 Ko'nglum uyin aylagil sarosar,
 Tavhid charog'idin munavvar
 Toatda qaddimni aylagil xam,
 Lufing manga hargiz etmagil nam.
 Man zorg'a tavba ato qil,
 Fayzingga zamirim oshno qil.
 Dahr eliga garchi podshoman,
 Ehzoniga mustahiq gadoman.
 Adlim bila faqr elini qil shod,
 Ehsonim ila jahonni obod.
 Borchcha tilagimni ayla maqbul,
 Majmu'm murodim ayla mahsul.
 Dunyoda maqomimi rafi' et,
 Uqboda rasulingi shafi' et.
 Ko'btur manga rahmatingdin umid,
 Kilma mani notavonni navmid.
 Qil baxt ila tole'imni Feruz,
 Har bir kunim ayla iydi Navro'z.
 Ko'nglumda ne ersa komi maqsud,
 Bir damda borisin ayla mavjud.
 Muxammaslar

Ko'r mak tilab yuzungni, ey sho'x guluzorim,
 Qonlar to'kar damodam bu chashmi ashkborim,
 Quchmok tilab belingni hech qolmadi qarorim,
 Yo'lungda tufroq o'ldi bu jismi xoksorim,
 Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.
 Bo'lgoch nazarda zohir tovusdek xiroming,
 Aqlimni qildi hayron ta'zim ila saloming,
 Lol ayladi tilimni to'tisifat kaloming,
 Yo'qtur jahonda mandek bir kamtarin g'uloming,
 Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.
 Sen husn shohidursen, rahm ayla bu gadog'a,
 Kelmasmu hech rahming bu zori mubtaglo'a,

Kahringin aylab afzun ko'p qo'yimag'il balog'a,
 Lutfu karam shior et, xo'y aylama jafoq'a,
 Oromijon nngorim, sarviravon nngorim.
 Gulgun uzoring uzra chiqmish xatti zumurrad,
 Bu xat bila bo'lub sen husn ahlig'a saromad,
 Go'yo sanga bo'lubdur shamsu qamar obo jadd,
 Mundin ziyod etarga vasfingni yo'q manga had,
 Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.
 Qadding xayoli tushgach xotirg'a, ey sumanbar,
 Ermas nazarg'a manzur shamshod ila sanavbar,
 Bo'lmas esa muyassar ul kokili muanbar,
 Tutg'oymu o'rnnin oning rayhonu sunbulu tar,
 Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.
 Qil holima tarahhum, ey soqiyyi diloro,
 Soldi sipohi ishqing jon kishvarig'a yag'mo,
 Mani zor bedilingg'a lutf aylagil nigor,
 Qolmadi furqatingda sabru qarorim aslo,
 Oromijon nigorim, sarviravon nngorim.
 Mehri kamardek olib toju kamarni pinhon,
 Oxir boshu beliga ziynat yeturdi ul jon,
 Qilsang muni tafakkur, ey shoiri suxandon,
 Bir sho'xi dilraboning ismi bo'lur namoyon,
 Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.
 Bo'stonda bazm etarga jam' o'lsalar sanamlar,
 Ul bazm ichida Feruz o'lsun desang suxanvar,
 O'z ilking ila tutg'il bir lolarang sog'ar,
 Yuz nozu ishva birla kirganda bog'a dilbar,
 Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

* * *

Chekib hijronda ranji bekaron ohista-ohista,
 Yutar erdim labi fikrida qon ohista-ohista,
 Bu holimdin topib bu kun nishon ohista-ohista,
 Manga rahm aylab ul shirin zabon ohista-ohista,
 Yetushti boshim uzra nogahon ohista-ohista.
 Shabi hijronda aylab dardu mehnat kulbasin maskan,
 Sochar erdim sirishkim donasin har sori yuz xirman,
 Bu hol ichra tarahhum ko'rguzub ul dilbari purfan,
 Firoqida qororg'oh ko'zlarimni ayladi ravshan,
 Ochib ruxsorai xurshidson ohista-ohista.
 Qudumi intizorida bo'lub tong otgucha bedor,
 Chekib har damda gardun sori yuz ming ohi otashbor,
 Bo'lub g'am tig'i birla sarbasar jonu tanim afgor,
 Edim hijroni dardi shiddatidin o'lqudek bemor,
 Yetushti vaslidin suhbat ravon ohista-ohista.
 Minib raxshig'a bukun man sori atfi inom aylab,
 Shitob ichra araqni gul uza shabnam fishon aylab,
 Kelib bazmim qudumi birla gulzori jikon aylab,
 Masiho mo"jizin jonbaxshi la'lidan ayon aylab,
 O'luk jismimga berdi toza jon ohista-ohista.
 Rusumi dilrabolig' ko'rguzub gul yuzli jononim,
 Bilib hijron o'ti kuydurganni boshdin-oyoq jonim,
 Ko'rub rahm aylabon jismi nizoru chashmi giryonim,
 So'rub dildorlig' rasmi bila holi parishonim,
 Qilib oshino dilbarlik ayon ohista-ohista.
 Tarahhum ko'zguzub har dam fuzun a'dodi imkondin,
 Tabassum aylabon yuz ishva birla la'li xandondin,
 Takallum boshlabon har lafzni aylab chuchuk jondin,
 Dedi:"Б"Еy oshiqi zorim maloli dardi hijrondin,
 Bo'lubsan asru zoru notavon ohista-ohista"
 Mayi la'llimni dardingga davo aylarga kelmishman,
 Zamiringda ne ersa muddao aylarga kelmishman,
 Nekim rasmu muhabbatdur, sango aylarga kelmishman,
 Bu dam vaslim bila koming ravo aylarga kelmishman,
 Maqomingg'a bori eldin nihon ohista-ohista.
 Qilib tun-kun visolim bazmig'a yetmakni andisha,
 Urub Farhod yanglig' ranju mehnat tog'ig'a tesha,
 Qilib ishqimda ko'nglunngi musaffo, o'ylakim, shisha,
 Necha kun dardi hijronim aro sabr aylading pesha,

Bo'l emdi vaslim ichra shodmon ohista-ohista.
 Edi hijron aro maqsuding o'pmak borho la'lim,
 Quchub nozik belim ko'nglumga so'rmoq muddao la'lim,
 Bugun koming ne ersa qilg'usi oni ravo la'lim,
 Agar istarsan o'pmaklikni, eng jonfizo la'lim,
 Qucharsan, quch belim, engu miyon ohista-ohista.
 Manga iqbol yanglig' bo'ldi chun ul hamdamu hamdast,
 Oyoqing o'pkali man ollida tufroqg'a bo'ldum past,
 Talattuf birla ul la'lin labimga ayladi payvast,
 Man o'ldum yor la'li bodasi birla bo'lub sarmast,
 Firoqi ranjidin toptim omon ohista-ohista.
 Ko'zumdin oqizib ashkni hijron ichra suv yanglig',
 Bo'lub obi ravon ondin ayon har sori jo' yanglig',
 Riyozat tortibon aylab tanin za'f ichra mu yanglig',
 Kishi gar sodiq ersa ishq aro vasl ichra bu yanglig',
 Bo'lur Feruzbaxtu komron ohista-ohista.

Yorim labining yonida jon sharbatidur bemaza,
 Yo'q partavi ruxsoricha husn avji uzra mehru moh,
 Vaslig'a bir kun yo'l topib bir necha oqizliq bila,
 Dedi: "Ko'zungdin o'rgulay, bir bo'sa ber Feruzg'a!"
 Dedi: "Yuzumni og'ritur har yon xating nishi botib.
 Zebo nigorimkim, bukun zar birla zevarg'a botib,
 Yonimg'a keldi noz ila qoshu ko'zini o'ynotib,
 Ko'nglum parishon ayladi yuz uzra zulfin tarqotib.
 Dedi: "Ko'zumni ravshan et mehri jamoling ko'rsotib!
 Dedi: "Uzorim o'tig'a jonung netarsan o'rtotib?
 Ul dilbarikim, bordurur husn avjida mohpura,
 Jonimg'a soldi ishq o'tin toki ochib ruxsora,
 Chun oshiq o'lg'och ishqining dardiga pstab chora,
 Dedi: "Tarahhum aylabon holimg'a qil nazzora!"
 Dedi: "Ko'zum joning figor etgusi noz o'qin otib.
 Husn ahlining shohi mening sho'xi dildorim erur,
 Yuz birla zulfi hajrida teng subh ila shomim erur,
 Dedi: "Sanga maqsad na, ey besabru oromim, erur? ",
 Dedi: "Visol ichra labing shahdi mening komim erur,
 Dedi: "Sanga bergum oni zahri firoq ichra qotib.
 Ta'm ichra la'lidan emas jannatfizo kavasar suyi,
 Yetkurmas elga nutqidek fayzu safo kavasar suni,
 Bir kun bo'lub mazkur ul on bazmi aro kavasar suyi,
 Dedi: "Labingning sharbati shirinmu yo kavasar suni?
 Dedi: "Bo'lurmu har suyi obi baqog'a o'xshotib?!"
 Na mumkin ul oy zulfining atricha anbar bo'lmog'i,
 Shirin labig'a sharbati hayvon barobar bo'lmog'i,
 Shahlo ko'zidek zulmkor dahr ichra kofar bo'lmog'i,
 Dedi: "Nedin erkan bugun olam muattar bo'lmog'i?
 Dedi: "Sochimni tong yeli yuz uzra solmish butrotib.
 Bu kecha kulbamga kelib mast ul parilar sarvari,
 Etti ko'zum ravshan yuzin ochib chu mehri anvari,
 Chun subh chog'i masti xob olud edi nargislari,
 Dedi: "Ko'zung bedor qil noz uyqusidin, ey pari,
 Dedi: "Bu lahza fitnai noyimni netkung uyg'otib?
 Ogahiy G'azallariga Taxmislar
 Rangin takallummu bo'lur chunkim guharafshon labing,
 Fayzu farah yetkurgusi ko'nglumga bepoyon labing,
 Fahm etmadim ne xosiyat qilmushdurur pinhon labing,
 Yoqtdurmu bilmadim yo la'l ey jonon, labing,
 Yo orazing gulzorida bormu guli xandon labing.
 La'lnig firoqida bo'lub asru zaifu xasta jon,
 Jismi nizorimdin olib qadding g'ami tobu tavon,
 O'lmakka yetganda yovuq kelding boshimg'a nogahon,
 La'lingni bir o'pmak bila toptim hayoti jovidon,
 E'jozi Isomu ekan yo sharbati hayvon labing.
 Javru jaflolar aylabon jonimga bu garduni dun,
 Qildi labing hijronida ashkimni qon, bag'rimni xun,
 Dardim erur behad fuzun, kun-kundin ahvolim zabun,
 Ko'zdin to'kub hijron aro doim sirishqi lolagun,
 O'pmaklik aylab orzu tun-kun yutarmen qon labing.

Ko'nglumga bo'l mishdur labing bir bo'sa qilmoq muddao,
Muft ermas ushbu matlabim, bo'lsa agar, sandin ravo,
Oltun-kumish xud sahl erur, ey dilbari shirinliqo,
Gar bo'sa la'lingga jon naqdin qilur ersang baho,
Olg'um nedinkim bir o'pub o'lganga na armon labing.
Taqvoi toat aylabon zuhd ahli tinmay ro'zi shab,
Jannatga kirmak orzu aylab chekar ranju taab,
Aql eli ko'ying borida jannatni qilgaymu talab,
Feruz, jannat ravzasin, gar, istamas ermas, ajab
Kim, orazing jannat guli, kavsar suyi, ey jon, labing.
* * *

Bir jilvagar bo'lg'och ko'zum ollida to qoshu ko'zung,
Fahmi xiradin ayladi mandin judo qoshu ko'zung,
Jonimni oldi aylabon nozu ado qoshu ko'zung,
Vah ne balodur bilmadim, ey dirlrabo, qoshu ko'zung
Kim, bir nazarda soldi o't jonim aro qoshu ko'zung.
Ham Xizri xatting dilkusho, bordur masihoni so'zung,
Ham ko'zu qoshing qotili jonbaxga erur, rangin so'zung,
Ham beqaror o'lg'on ko'ngullarga berur taskin so'zung,
Ham yuz o'lukni turguzur la'ling aro shirin so'zung,
Ham ming tirikni o'lturur aylabon istab muallo manziling,
Ko'rgach musaffo orazing, bo'ldum asiri bediling,
Jonu ko'ngul betob erur so'rmoq tilab shirin labing,
Oldi karori toqatim oq siynayu nozik beling,
Soldi qaro kun boshima ikki qaro qoshu ko'zung.
Boqgoch ko'z ila qoshinga, bo'ldum asir, ey no'shlab,
Jonim yoqar oshiq o'ti, qoshu ko'zung bo'ldi sabab,
Emdi fig'onlar aylabon hijroning ichra ro'zu shab,
Qoshu ko'zung bedodidin dod aylasam ermas ajab,
Kim, ne jafolar qilmadi oxir mango qoshu ko'zung.
Farrux yuzung husn avjining bordur mohitobopikim,
Xanling erur mahbublar, sansan alar sultonikim,
Mankim tamanno aylamak, san sho'x beparvonikim,
Yo'qtur manga ishqing aro yurmak tirik imkonikim,
Jonimni yo qaddu yuzung olg'usi yo qoshu ko'zung.
Husn ahli shohisan, erur mulkung malohat kishvari,
Ikki ko'zung jodu erur, qoshing alarning xanjari,
Majnundek o'ldi ko'rgach, ul husning jahon donolari,
Man zori hayroning nechuk devona bo'lmay, ey pari
Kim, aqlu hushim ayladi mandin judo qoshu ko'zung.
Istab visoling bazmini, ey xo'blarning ahsani,
Iqboli Feruzing kibi ko'b justujo' aylab sani,
Ko'rgach yuzung ishq o'tiga ko'pdi vujudi xirmani,
Shirin labingdin Ogahiy jismig'a jon berkim, ani,
O'lturni bir imo qilib boqg'och qiyo qoshu ko'zung.
Qilmish azalda sun'i haq husn ichra yakto orazing,
Oyu quyoshg'a o'xshamas hargiz musaffo orazing,
Ko'rgan kishi aqlin qilur hayronu shaydo orazing,
Jonbaxsh la'ling uzra xat to qildi paydo orazing,
Jam' ayladi xurshid uza Xizru Masiho orazing.
Bir tun mening kulbamg'a, ey mahvash, karam raxshini sur,
Ochib uzoringni qaro shomig'a ravshanlig' yetur
Kim, sandin ehsonu karam zohir bo'lur vaqtida ko'r,
Oydek yuzung mahjurlar shomi g'amini yorutur,
Partav mening shomimg'a ham solg'oymu, oyo, orazing.
Lutf aylabon man zorg'a, ey sarvqaddi mahliqo,
Ko'pg'il qadam kulbam aro ochib uzori dilkusho,
Toki chekarman orazing ko'rmak tilab ranju ano,
Joning uchun rahm aylabon ko'rguz yuzungkim hajr aro,
Joning'a yetdim aylabon ko'rmak tamanno orazing.
To ishqing ichra ey pari, devonai zor o'l musham,
Hajringda g'am tirnog'idin a'zoyi bir-bir yulmusham,
Guldek uzoringni tilab gulbargi yanglig' so'l musham,
Rozi o'lumga orazing hajri g'amidin bo'l musham,
O'l tur mani yo tig' ila, ko'rguz manga yo orazing.
Qat' etgali yuz urmusham to furqating tog'u tuzin,
Olmon qulog'img'a g'amidin tarkida nosihlar so'zin,

Mayl etmagum gar xo'blar har necha arz etsa o'zin,
 Ko'z solmag'um jannat aro g'ilmonu hur ochsa yuzin
 Kim, maksadim ko'yung aro qilmoq tamosho orazing.
 Hargiz zulmat yo'li sori g'ayrat bila yuz urmamish,
 Gulzoru ko'yung sayrig'a sa'y ila markab surmamish,
 O'zni tamoshoyn qadu ruxsoringa yetkurmamish,
 Zohid tilar jannat, guli sarvdin magarkim ko'rmamish,
 Lutf ichra zebo qomating, husn ichra yakto orazing.
 Feruzning arzi budur san xo'blar shohigakim,
 Bo'lma sabab javr aylabon har dam oning ohig'akim,
 Bir lutf ila taskin yetur faryodu jonkohigakim,
 Ishqing o'tig'a ko'ngusi, rahm ayla Ogahiygakim,
 Tokim ko'rubdur bir nazar ul zori shaido orazing.

Musaddaslar

Subhkim, ul sarvi gulro'x sayri gulzor ayladi,
 Sarvu gulg'a qaddu ruxsorni namudor ayladi,
 Sarv qaddig'a egib bosh qulluq izhor ayladi,
 Gul yuzin surtub poyig'a o'zini xor ayladi,
 Rashk tig'i joy ila ko'ngulni afgor ayladi.
 Do'stlar, ul dilrab bo'lib ishq mani zor ayladi.
 Gar nafas qilgach nazora ul quyosh ruxsorga,
 Jon ko'nglum qoldi ishq ranjidin ozorg'a,
 Aylasam jonim fido boqmay man bemorga,
 Har nafasda ko'rguzur yuz iltifot ag'yorg'a,
 Aylamas bir rahme zohir man g'aribu zorg'a,
 Do'stlar, ul dilrab bo'lib ishq mani zor ayladi.
 Jonfizo la'lin takallumga oyursa nogahon,
 Har kalomidin topar o'lgan badan ruhi ravon,
 Go'yijo uldur bu davron nchra Isoyi zamon
 Kim, kishi ko'rmaydur andoq mahvashi shirin zabon,
 Ayb qilmang, istab oni, aylasam ohu fig'on,
 Do'stlar, ul dilrab bo'lib ishq mani zor ayladi.
 Xo'b emastur qaddi to"bi qomati raftoricha,
 Dilkash ermas ravzai rizvon yuzi gulzoricha,
 Yo'qturur xurshid nuri jabhai anvoricha,
 Sunbul ermas atrparvar zulfi anbarboricha,
 Tong emas, vaslin talab qilsam agar jon boricha,
 Do'stlar, ul dilrab bo'lib ishq mani zor ayladi.
 Ohkim, tarki muhabbat aylabon ul dilrab,
 Notavon jonimg'a ko'rdi hajr anduhin ravo,
 Muncha ham bo'lg'oymu bir bedilg'a qilmoqlik jafo,
 Dilrabolig' rasmida avval qilib mehru vafo,
 So'ngra qildi mehnat hijroni birla mubtalo,
 Do'stlar, ul dilrab bo'lib ishq mani zor ayladi.
 Ul quyoshdin ayru bir zarra qarorim qolmadn,
 Aqlu hushim ketdi-yu, sabr-ixtiyorim qolmadn,
 Dardi hijron chekkali tanda madorim qolmadn,
 Vasl uchun aylab gadoliq nangu orim qolmadn,
 Yig'lamoqdin o'zga hajr ichra shiorim qolmadn,
 Do'stlar, ul dilrab bo'lib ishq mani zor ayladi.
 Ishq mulkida edim Feruzbaxtu komkor,
 Amrima ma'mur erdi necha sho'xi guluzor,
 Lekin oni ko'rgach o'lbum bandasi beixtiyor,
 Qolmayin ko'nglum aro bir zarracha sabru qaror,
 Aql ila hushu xiradni qildi mandin beqaror,
 Do'stlar, ul dilrab bo'lib ishq mani zor ayladn.

Ul pari egnida gulrang libosini ko'rung,
 Mehrdek orazining nuru ziyyosini ko'rung,
 Nutqi jonbaxshu labi ruhafzosnni ko'rung,
 Otg'oli g'amza o'qin qoshlari yosini ko'rung,
 Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko'rung,
 Jonima har nafas ozoru jafosini ko'rung.
 Orazidin olib ul mehru jahontob niqob,
 Zeb uchun ko'zga chekib surma, urub yuzga gulob,
 Ko'zlari fitnasidin qilg'oli olamni xarob,
 Yuzi o'ti bila aylarga jigarlarni kabob,
 Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko'rung,

This is not registered version of TotalDocConverter
Jonima har nafas ozoru jafosini ko'rung.

Gul xijil bog' aro oning gul ruxsoridin,
Sarupo dar gul erur qomati raftoridin,
Lol erur qumriyu bulbul labi guftoridin,
Sindi shakkarga baho la'li shakkarboridin,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosinn ko'rung.
Jonima har nafas ozoru jafosini ko'rung.
Jon olur har boqishi birla qaro ko'zginasi,
Toza jon ham berur elga shakkarin so'zginasi,
Koshi yo, kipriki o'q, ofatijon yuzginasi,
Fitnagar chobuk xudroyi erur o'zginasi,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko'rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko'rung.
Ko'z yumub noz ila gohi chekibon xomyzoa,
Kosh qoqib gah qilibon jilvai beandoza,
O'ziga har dam etib g'amza fununi toza,
Kildi oshiqlig'im olam eliga ovoza,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko'rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko'rung.
Jilvai qomatig'a tu'bini rizvon banda,
Mutabassim labig'a g'unchai xandon banda,
Ikki shahlo ko'zig'a nargisi fattan banda,
Orazi mehrig'a xurshidi duraxshon banda,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko'rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko'rung.
Toki ul sho'x g'ami ishqig'a duchor o'ldum,
Dam-badam dardi balo xayli bila yor o'ldum,
Kokili domiga pobasti giriftor o'ldum,
Talab vaslida Feruz kibi zor o'ldum,
Vahki, ul mehrliqo nozu adospni ko'rung,
Jonima har nafas ozoru jafosinn ko'rung.
Ruboiylar

Ey sho'x, tarahhum aylakim, zoringman,
Jonu dilu din ila giriftoringman.
Gar vaslingga aylasang baho jon naqdin,
Yuz jon esa ham berib xaridoringman.

Qilmish mani bir dilbari zebo oshiq,
Boshdin oyoqi latifu ra'no oshiq,
Yo'q mumkin o'zi xoli hamsuhbati man,
Bo'lgaymu maningdek yana paydo oshiq.

Jonbaxshi kaloming erur ul nav' fasih,
Iso kibi jon bergusidur elga sarih,
Har sho'xki, husn ichra tutar o'zni sabih,
San borchasidin sabih ham asru malih.

Ko'rgach yuzung, zy dilbar, farkunda sifot,
Hech qolmadi ko'nglum aro oromu sabot,
Xosiyati la'ling obi hayvon yanglig',
So'rg'on kishiga bergusi jovidi hayot.

Kam etmadi qahrin manga dildor hanuz,
Tark aylamadi javr ila ozor hanuz.
Man hajrida subhu shom yig'larman qon,
Xushnud erur bazmida ag'yor hanuz.

Gar dilbarim o'lmasa mango hamsuhbat,
Naylay esa yuz hurliqo hamsuhbat,
Ul sho'x agar anisim o'lmas ersa,
Darkor emas ushbu dahr aro hamsuhbat.

Ro'zi sanga borchha kom bo'lsun, yorab!
Iqbolu man mudom bo'lsun, yorab!
Ham davlati mustadom bo'lsun, yorab!
Ham ishrati bardavom bo'lsun, yorab!